

# POSTDA



Gazeta 1930-yil 12-maydan  
chiqa boshlagan

НА ПОСТУ ★ AT THE POST

O'zbekiston Respublikasi  
Ichki ishlar vazirligi nashri

## MAQSAD — OSOYISHTALIKNI TA'MINLASH



Prezidentimiz rahbarligida o'tkazilgan yig'ilishda berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash, muborak Ramazon oyini munosib o'tkazish maqsadida Olmaliq shahrida keng qamrovli «Xavfsiz hudud» maxsus profilaktik tadbiri o'tkazilmoqda.

Barcha huquq-tartibot idoralari hamkorligida tashkil etilgan maxsus profilaktik tadbir davomida o'rganish ishlari olib borildi. O'rganishlar

jarayonida masjidlarning yong'in xavfsizligi talablariga muvofiqligi, elektr tarmoqlarining holati hamda jamoat tartibini saqlash imkoniyatlari ko'zdan kechirildi.

Shahar hududida jamoat xavfsizligini ta'minlash va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ko'ngilsiz holatlarining oldini olishga qaratilgan aniq chora-tadbirlar belgilab olindi.

Bu yo'nalishdagi ishlar davom ettirilmoqda.



# USTUVOR VAZIFALAR IJROSI

**Davlat rahbarining topshirig'iga muvofiq, Chilonzor tumanida jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, aholi uchun xavfsiz muhit yaratish borasida «poytaxt namunasi»ni shakllantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar izchil davom ettirilmoqda.**

## Jinoyatchilikni jilovlash yo'lida

Tumandagi 280-sonli maktabda hokim Saidqahhor Xolxo'jayev hamda tuman IIOFMB boshlig'i, polkovnik Farruh Giyasov, mahalla raislari, profilaktika inspektori ishtirokida tumanning Al-Xorazmiy nomli, «Bek-to'pi», «Beshqo'rg'on», «Bahoriston», «Guliston», «Katta Xirmontepa», «Tir-sakobod», «Xirmontepa», «Xonto'pi», «Xayrobod», «Sharaf», «Sharq», «Sharq tongi» hamda «Shuhrat» mahallalarida Prezidentimizning 1-sonli qarori ijrosi doirasida jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha joriy yil yanvar oyida amalga oshirilgan ishlar tahlili bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi.

Yig'ilish davomida ushbu yo'nalishda olib borilayotgan ishlar atroflicha ko'rib chiqilib, sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarning barvaqt oldini olishga qaratilgan aniq chora-tadbirlar belgilab olindi. Tadbirida tuman hokimi tomonidan hududdagi barcha mehmonxona va avtoturargohlarga, mahallalarning kirish-chiqishi



hamda ichki ko'chalarga zamonaviy kuzatuv kameralari, jumladan, Face-ID tizimlarini o'rnatish, shuningdek, aholi o'rtasida avtoulov va texnik vositalarni nazoratsiz qoldirmaslik bo'yicha targ'ibot ishlarini yanada kuchaytirish yuzasidan mas'ullarga tegishli topshiriq va ko'rsatmalar berildi.

Tuman IIOFMB boshlig'i, polkovnik Farruh Giyasov hudud profilaktika inspektorlari fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikning oldini olishda, avvalo, shaxsiy mas'uliyatni oshirish, huquqbuzarliklarni sodir etishga moyil yoshlar bilan ishlarni jadallashtirish kerakligini ta'kidladi.

Ma'lumot o'rnida aytish kerakki, «poytaxt namunasi»ni shakllantirish doirasida tuman mahallalarida sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarning oldini olish yuzasidan 321 ta muhokama, yoshlar ishtirokida 553 ta hamda jinoyat sodir etgan xotinqizlar bilan 26 ta profilaktik tadbir o'tkazildi.

– Hududimizda 34 ta ko'pqavatli uylar mavjud bo'lib, 5590 nafar aholi istiqomat qiladi, – deydi «Guliston» mahallasi profilaktika katta inspektori, mayor Mirvohid Chorshanbiyev. – Mahallamizni «sariq» toifadan «yashil»ga olib chiqish uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni ishga solmoqdamiz. Xususan, mahalla yettiligi va boshqa hamkor tashkilotlar bilan profilaktik ishlarni kuchaytirganmiz. Tadbirida mahalla raislari hududda jinoyatchilikni jilovlash, profilaktik ishlar samaradorligiga erishish yuzasidan o'z taklif va mulohazalarini bildirdi.

## Xatlov tadbirlari

Tumanda xavfsiz muhitni ta'minlash va migratsiya oqimlarini nazorat qilish maqsadida tizimli xatlov tadbirlari amalga oshirilmoqda. Mazkur yo'nalishda amalga oshirilayotgan tadbirlar nafaqat osoyishtalikni ta'minlash, balki fuqarolarning yashash sharoitlarini yaqindan o'rganishga ham xizmat qilmoqda.

– Bugungi kun talabi – qonun ustuvorligini ta'minlash va hududda kim yashayotganini aniq bilishdan iborat, – deydi tuman IIOFMB Migratsiya va personallashtirish bo'limi boshlig'i, podpolkovnik Bobur Beknazarov. – Shu maqsadda olib borilgan xatlov

tadbirlari natijasida joriy yilning 16-fevral kuniga qadar tuman hududidagi 23 ta mahalla to'liq qamrab olindi. Xodimlarimiz 700 dan ortiq ko'p qavatli uylar va mingdan ziyod noturar obyektlarda bo'lib, 40 mingga yaqin xonadonda o'rganish ishlarini olib borishdi.

Bu jarayonlar shunchaki raqamlardan iborat bo'lib qolmasdan, balki 96 mingdan ziyod hamshaharlarimizning yashash sharoiti va ijtimoiy holati bilan tanishish imkonini berdi. Shundan 22 mingga yaqini voyaga yetmaganlar bo'lib, o'rganishlar davomida ularning yashash sharoiti ko'zdan kechirilib, ta'lim-tarbiyasi hamda

ma'naviy kamoloti davlatimizning doimiy e'tiborida ekanligiga alohida e'tibor qaratildi.

Eng muhimi, biz faoliyatimizni ma'muriy chora emas, huquqiy ko'mak tamoyili asosida tashkil etganmiz. Jarayonda 16 mingdan ortiq boshqa hududlardan kelgan fuqarolar aniqlangan bo'lsa, ularga ortiqcha ovoragar-chiliksiz xizmat ko'rsatishga harakat qilindi. Xususan, fuqarolarga maksimal darajada qulaylik yaratish maqsadida zamonaviy texnik vositalardan foydalanildi. Xodimlarimizning qo'l planshetlari orqali 6847 nafar shaxs vaqtinchalik istiqomat qilayotgan manzillarining o'zida, mahalladan chiqmagan holda ro'yxatdan o'tkazildi. Shuningdek, 2933 nafar fuqaroning noturar obyektlardagi hisobi tartibga solindi. Bu raqamli tizimning afzalligi shundaki, ortiqcha qog'ozbozlikka chek qo'yilib, fuqaro va ichki ishlar organlari o'rtasidagi ishonch ko'priki mustahkamlanmoqda.



## Tajriba – eng yaxshi maktab



Jinoyatchilikni jilovlashda zamonaviy texnologiyalar bilan birga, ko'pni ko'rgan insonlarning o'giti ham muhim rol o'ynaydi. Shu bois tuman IIOFMB Faxriylar kengashi a'zolari mazkur jarayonlarda faol ishtirok etib, o'zlarining boy kasbiy mahoratini yosh avlod bilan o'rtoqlashmoqda.

Navbatdagi uchrashuvlarda faxriylar xizmat faoliyati davomida duch kelgan murakkab vaziyatlar va ularni oqilona hal etish yo'llarini yosh xodimlarga o'rgatishdi. Muhimi, bu muloqotlar faqat tizim doirasida cheklanib qolmay, mahalla yoshlari o'rtasida ham davom etmoqda. Keksa avlod vakillari yigit-qizlarga to'g'ri yo'l ko'rsatib, hayotda o'z o'rnini topishlari

bo'yicha bergan maslahatlari hududda ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

«Poytaxt namunasi»ning asosiy mezonini ham mahallabay ishlash tizimi orqali har bir xonadonga kirib borish, muammolarni barvaqt aniqlash va aholi uchun tom ma'noda xavfsiz muhit yaratishdan iboratdir. Belgilangan vazifalar amalga oshishi uchun soha xodimlarining tezkorligi va shaffof faoliyati hamda faxriylarning boy tajribasi bir nuqtada birlashsa, «xavfsiz hudud» tamoyili to'liq qaror topadi.

**Sarvar SOBIROV,**  
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.





## Toshkent viloyati

# JAMIYAT OLDIDAGI BURCH

«Nuroni» jamg'armasi Toshkent viloyati bo'limi, Qibray tumani hokimligi va Toshkent davlat agrar universiteti hamkorligida xavfsiz muhitni shakllantirishga bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tdi. Mazkur tadbir Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida joriy yil 27-yanvar kuni Toshkent shahrida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining maslahatchisi, general-polkovnik Zokirjon Almatov ochib bergan tadbirda «Nuroni» jamg'armasi viloyat bo'limi boshlig'i Abdusamad Nosirov, Qibray tumani hokimi Muzaffar Rashidov, O'zbekiston, Qoraqalpog'iston va Tojikiston xalq artisti, IIV Jamoatchilik kengashi raisi Yodgor Sa'diyev, universitet rahbariyati, professor-o'qituvchilar hamda talabalar qatnashdi.

Tadbir davomida yoshlar o'rta-sida huquqbuzarliklarning oldini olish, sog'lom ma'naviy muhitni mustahkamlash, ta'lim muassasalarida xavfsizlikni ta'minlash, shuningdek, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligini yanada kuchaytirish masalalari atroflicha muhokama qilindi. Mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar, nuroniylarning yosh avlod tarbiyasi-



dagi o'rni, mahalla institutining jamiyat barqarorligidagi ahamiyati hamda yoshlar bilan ishlashning samarali mexanizmlari yuzasidan fikr-mulohazalar bildirildi.

Tadbir yakunida Yodgor Sa'diyev ishtirokchilarni dilbar qo'shiqlari bilan xushnud etdi. Shuningdek,

qiziqarli savol-javoblar tashkil etilib, esdalik sovg'alari topshirildi. Bunday muloqotlar yoshlar ongida mas'uliyat, hushyorlik va vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi.

**Abror POYONOV,**  
katta serjant.

## Qonun ko'zgusida

# MUROJAATLAR BILAN ISHLASH – ADOLAT MEZONI

Bugun mamlakatimiz ichki ishlar organlari tizimida fuqarolarning ariza va shikoyatlari bilan ishlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Xususan, endilikda asosiy e'tibor muammoning amaliy yechimiga va xodimlarning xatti-harakatlari ustidan qat'iy nazorat o'rnatishga qaratilmoqda.

## FUQARO VA VAZIRLIK O'RTASIDAGI ISHONCH KO'PRIGI

Murojaatlar bilan ishlash bo'limining asosiy vazifasi – arizalarni qabul qilib olish bilan cheklanib qolmasdan, har bir holat bo'yicha xolis o'rganish o'tkazilishini ta'minlashdir. Chunki adolatsizlikka, sansalorlikka yoki joylardagi xodimlarning noo'rin xatti-harakatlariga duch kelgan fuqarolar aynan shu bo'limga umid bilan yuzlanishadi.

O'tgan yil davomida IIV JXD HPX murojaatlar bilan ishlash bo'limi tomonidan samarali ishlar amalga oshirildi. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, shikoyatlar bilan ishlash jarayoni sonidan sifatga o'tmoqda. Endi har bir murojaat tizim ichidagi qonunbu-

zarliklarni aniqlash va xizmat tekshiruvi o'tkazish uchun muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda.

## TIZIMLI XATOLAR USTIDA ISHLASH

Qonun talablariga bepisandlik bilan qilinayotgan holatlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Masalan, Xorazm va Farg'ona viloyati hamda Toshkent shahrida jinoyat ishi qo'zg'atishni asossiz rad etish holatlari aniqlangan. Bo'lim xodimlari bunday qonun buzilishlarini o'z vaqtida aniqlab, materiallarni qayta ko'rib chiqish uchun tergov organlariga qaytarayotir.


Ayniqsa, Andijon viloyatidagi bir holat mustaqil nazorat naqadar muhimligini ko'rsatdi. Gap shundaki, fuqaroning

xodim ustidan qilgan shikoyatini o'rganish aynan o'sha xodimning o'ziga topshirilgan. Faqatgina vazirlikning qat'iy aralashuvi va materiallarning sinchiklab o'rganilishi natijasida adolat tiklandi. Bunday holatlar butun tizim uchun saboq bo'lishi kerak. Zero, murojaatlarga nisbatan befarqlik va «tanish-bilishchilik»ka aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi.

## RAQAMLI MULOQOT: VAZIR BILAN YUZMA-YUZ

Joriy yilning 26-yanvaridan boshlab aholi bilan muloqot qilishning mutlaqo yangi va zamonaviy shakli yo'lga qo'yildi. Ichki ishlar vazirining shaxsiy qabullari endi byurokratik to'siqlarsiz, ya'ni Toshkent shahri aholisi uchun bevosita ochiq muloqot tarzida, hududlar va Qoraqalpog'iston Respublikasi uchun esa zamonaviy videokonferensaloqa tizimi orqali o'tkazilmoqda.

Endilikda o'z muammosini rahbariyatga yetkazish uchun yuzlab kilometr yo'l bosib, poytaxtga kelishga hojat qolmadi. Natijalar esa ko'zga ko'rinarli: tizimga oid muammolarning qariyb yarmi joyida hal etilmoqda. Xususan, mulkiy nizolar, yo'l harakati xavfsizligi va kadrlar bilan



**“ VAZIRLIK OCHIQ BAYON QILADI: XODIMLAR TOMONIDAN YO'L QO'YILGAN HAR QANDAY QONUNBUZARLIK ANIQLANADI VA UNGA CHEK QO'YILADI. BINOBARIN, IDORAVIY NAZORAT KUCHAYTIRILIB, MUROJAATLAR BILAN ISHLASHDA RAHBARLARNING SHAXSIY JAVOBGARLIGI YANADA OSHIRILADI.**

bog'liq masalalar o'zining qonuniy yechimini topmoqda.

## ADOLAT – ERISHILGAN NATIJADA

Tezkor aralashuvning yorqin misoli sifatida Bektemir tumanida yashovchi fuqaroning taqdirini keltirish mumkin. U firibgarlik qurboni bo'lib, uyi soxta hujjatlar orqali boshqa shaxslar nomiga o'tkazib yuborilgandi. Faqatgina rahbariyat nazorati va sohaviy xizmatlarning izchil tekshiruvidan so'ng ish oldinga siljidi va sud adolatli qaror chiqardi.

Bu kabi ishlar barcha hududiy boshqarmalarda

izchil davom ettirilmoqda. Qabul qilingan minglab fuqarolar va ijobiy hal etilgan yuzlab masalalar bugun har bir insonning ovozi eshitiylayotganidan dalolatdir.

## POKLK VA QONUNIYLIK

IIV JXD HPX murojaatlar bilan ishlash bo'limi shunchaki ariza qabul qiluvchi maskan emas, balki tizimni nopok xodimlardan tozalash vositasidir. Bunda asosiysi hisobot uchun to'ldirilgan yig'majildlar soni emas, balki adolatning qaror topishi muhimdir.

**Aziza BOXODIROVA,**  
mayor.





## Фахрийлар — фахримиз

«Қайиқлардан зудлик билан кутулиш керак!» Хавфли вазиятда тезкор қарор қабул қилган капитан кесувчи буюм излаб каютага тушди. Ҳамма ёқни тинтиб чиқди, кўзи бир четда ётган угада пахта уюмига тушди. Тагини очиб қараган эди, темир кесувчи арра чиқди. Тепага югурганча қайиқларни боғлаб турган арқонни кесиб ташлади. Катер бир силкинди-да, мувозанатини ростлади.

Хавф бирмунча ортида қолганди. Бўрон босилгач, моторни ўт олдиришди. Қирғоққа қадам босишганида ҳаммалари ҳолдан тойган, уст-бошлари шалаббо, ўзлари бир аҳволда, бироқ бир ўлимдан қолишганидан мамнун эдилар. Достон Жонодилов туман ИИБ бошлиғига алоқага чиқди ва ахборот берди.

Д. Жонодилов ички ишлар органлари тизимида 40 йилдан зиёд узлуксиз ва намунали хизмат кўрсатган, садоқат, мардлик, касбий салоҳиятни уйғунлаштирган ҳолда ўз бурчини бажарган инсон. Кўп умри хизмат сафарларида, сафарбарликда, фавқулодда вазиятлар юз берган манзилларда ўтди. Кабинетида тинчгина ўтиришдан кўра, тик оёқда, очиқ шароитларда хизмат қилган кунлари кўп бўлди. Ҳар қанча заҳматли бўлмасин, хизмат бурчига, қасамёдига содиқ қолди.

Достон Жонодилов болалигидан мардлик ва ҳимоячи образидаги касб эгалари — ички ишлар

## ҲАМОН ХИЗМАТГА ШАЙ

...2004 йил, сентябрь. Капитан Достон Жонодилов икки ҳамкасби ҳамроҳлигида Айдар–Арнасой кўллари тизимига йўл олди. Вазифа — браконьерларни ушлаш, уларнинг ноқонуний ов қилишига йўл қўймаслик. Беш нафар шундай қонунбузар қўлга тушди, уларнинг қайиқлари, ов қуроллари мусодара қилинди. Ортга қайтиш учун катерга 5 та қайиқни боғлашди. Фориш қирғоқлари томон йўлга чиққан катер кўлнинг қоқ ўртасига, маҳаллий аҳоли тилида айтганда, «катта сув»га етганида кучли бўрон кўтарилди. Сув қоядек баландлаб ҳар томондан катер устига ёпирила бошлади, ҳар урилганида қайиқларни писта пўчоғидек у ёқдан бу ёққа иргитарди. Қайиқлар сувга тўлиб, оғирлашиб, катерни ҳам сув остига торта бошлади.



идоралари ходимларига, ҳарбийларга ҳавас билан улғайди. Шу сабаб олий ўқув юртига ўқишга кира олмаганида кўп ҳам хафа бўлмади. Шартта ўзи туғилиб ўсган Фориш туманига қайтиб, касбийлаштирилган ёнғин ўчириш қисмига ўт ўчирувчи бўлиб ишга кирди. 1982–1985 йилларда Қозоғистоннинг Алмати шаҳридаги ҳарбийлаштирилган ёнғин ўчириш билим юртида таҳсил олди. Ёш лейтенанти Фориш тумани ИИБ Ёнғиндан сақлаш назорат бўлими катта инспектори этиб тайинлашди. Кўп ўтмай ИИБ Ёнғиндан

сақлаш олий техник мактабини капитан унвонида тамомлади. Форишга қайтгач, аввалги лавозимида ишни давом эттирди. Сўнгра, 1994–2001 йилларда вилоят ички ишлар органлари ёнғин хавфсизлиги хизматида, турли масъул лавозимларда самарали иш олиб борди. Унинг вилоят ИИБ ЖТСБ патруль-пост батальони командири, Фориш тумани ИИБ бошлиғи ўринбосари, Жанговарликни таъминлаш маркази бошлиғи лавозимларидаги хизмат фаолияти ҳам ғоят қизғин кечди. Айниқса, вилоят ИИБ Ҳар-

бий сафарбарлик бўлими бошлиғи бўлган даврда унинг маҳорати, жонбозлиги, ишни тўғри ташкил эта олгани яққол кўринди.

Достон Жонодилов 2022 йили подполковник унвонида пенсияга чиқди. Бу билан унинг халқ ва давлат олдидаги хизматлари поёнига етгани йўқ. У Фориш тумани Халқ қабулхонаси мудири лавозимида иш бошлади. Янги тузилмада, айниқса, дастлабки йилларда ишлаш қийин кечди. Жойларда муаммолар қалашиб кетган, асосан инфратузилма билан боғлиқ мурожаат-

лар, ижтимоий соҳадаги масалалар тоғ-тоғ эди. Достон Жонодилов янги вазифада ҳам иккиланиб қолмади: сайёр қабуллар ташкил этиш, муаммоларни ўрганиш, таклифлар бериш, ижрога йўналтириш, назорат каби юмушларни кичик жамоаси билан бирга тизимли тарзда ташкил қилди. Натижада йил сайин мурожаатлар сони, кўлами камайиб борди. Айнан туман Халқ қабулхонаси саъй-ҳаракати билан 5 та маҳаллада электр таъминоти яхшиланди. Тоғорти ҳудудга элтувчи Савурбел довони, туманни Челақ тумани билан боғловчи 75 км йўл асфальт қилинди.

Бугун 4 нафар фарзанди эҳтиромида, ўнлаб набиралари қуршовида кексалик гаштини сураётган истеъфодаги подполковник Достон Жонодилов ўтган умридан рози. Ҳамон маҳалла ҳаётидан узилмайди, соҳа фахрийси сифатида шогирдларидан маслаҳатини аямайди. Қисқаси, у ҳамон хизматга шай.

**Муқаддас САПАРОВА,**  
ўз мухбиримиз.

*Жиззах вилояти.*

## «Уч авлод» учрашуви

## АМАЛИЙ ТАЖРИБАДАН ИСТИҚБОЛ САРИ

Тошкент туманида «Уч авлод» учрашуви бўлиб ўтди. Ғоят қизғин ўтган тадбир авлодлар ўртасидаги ўзвийлик, ҳаётий тажриба ва фуқаролик масъулиятини бир майдонга жам этган муҳим мулоқотга айланди.

Учрашувга ички ишлар вазири маслаҳатчиси, генерал-полковник Зокиржон Алматов, Жиззах вилояти Ички ишлар бошқармаси бошлиғи, генерал-майор Ғайрат Қодиров, Тошкент вилояти Ички ишлар бош бошқармаси бошлиғи маслаҳатчиси, генерал-майор Сайфулла Асадов, истеъфодаги генерал-майор Аҳмаджон Усмоновлар таклиф этилди. Шунингдек, тадбирда ҳуқуқ-тартибот идоралари раҳбар ходимлари, мактаб директорлари, «қизил»



тоифага киритилган маҳаллаларнинг еттилик вакиллари, ёшлар ва профилактика инспекторлари қатнашди.

Учрашув давомида жамоат хавфсизлигини таъминлашда

оила, маҳалла ва жамоатчилик ҳамкорлигини кучайтириш, профилактик тадбирларни тизимли йўлга қўйиш, ёшлар ўртасида жиноятчиликнинг олдини олиш ва маънавий-ахлоқий тарбияни

юксалтириш масалалари юзасидан атрофлича фикр-мулоҳазалар билдирилди. Энг муҳими, катта авлоднинг ҳаётий сабоқлари, ўрта авлоднинг амалий тажрибаси ва ёшларнинг фаол позицияси бир нуқтада туташди. Бу эса хавфсиз жамият фақат қонун билан эмас, балки ҳамжиҳатлик, бефарқ бўлмаслик ва умумий масъулият билан барпо этилишини яна бир бор кўрсатди.

Тадбир якунида жамоат хавфсизлигини таъминлашдаги фаоллиги ва фидокорона хизматлари учун ҳамда бир гуруҳ профилактика инспекторлари эсдалик совғалари, ташаккурномалар билан тақдирланди.

**Раҳимжон ШОДИЕВ,**  
Тошкент вилояти ИИББ  
Фахрийлар кенгаши аъзоси.



## В службах и подразделениях

### ДИАЛОГ ЧЕРЕЗ ОТКРЫТОСТЬ

Органы внутренних дел на практике реализуют принципы информационной открытости и укрепления прямого диалога с гражданским обществом.

В Кинологическом центре ГУВД города Ташкента состоялось очередное заседание Общественного совета при МВД Узбекистана, совмещенное с пресс-туром для представителей СМИ.

Участники мероприятия ознакомились с полным циклом работы подразделения – от методики подготовки четвероногих помощников до тактики их применения в оперативно-служебной деятельности. Была представлена современная инфраструктура центра. Опытные кинологи продемонстрировали приемы дрессировки и уровень выучки служебных собак.

Заседание Общественного совета открыл председатель – народный артист Узбекистана, Каракалпакстана и Таджикистана Ёдгор Саъдиев. В своих выступлениях руководство центра акцентировало внимание на задачах подразделения по обеспечению общественной безопасности. Подчеркивалось, что кинологическая служба является важнейшим звеном в системе противодействия преступности. Были выдвинуты предложения по дальнейшему укреплению имиджа органов внутренних дел, необходимость оперативного и аргументированного реагирования на резонансные сообщения в СМИ.

Представители медиасферы отметили, что подобные пресс-туры делают работу органов внутренних дел понятной для граждан, укрепляя общественное доверие.

**Радик ТУМΠΑРОВ,**  
соб. корр.



## Женщина и общество

Перед участниками выступили представители Олий Мажлиса, Генеральной прокуратуры, МВД, известные женщины-ученые, чьи достижения становятся движущей силой стабильного развития государства.

Повестка докладов охватила широкий спектр вопросов. Особое внимание было уделено значительному научному прогрессу: за последние семь лет 5,2 тысячи женщин удостоены ученых степеней PhD и DSc, что подтверждает рост женской активности в большой науке. В центре дискуссии были: участие соотечественниц в процессах цифровизации и освоения технологий искусственного интеллекта; дальнейшее совершенствование правовых

### ПОТЕНЦИАЛ ДЛЯ СОЗИДАНИЯ

В Академии МВД Узбекистана состоялся «круглый стол» на тему «Наука и женщина: к устойчивому обществу». Мероприятие стало площадкой для обсуждения механизмов самореализации женщин в самых разных сферах – от законотворчества и высоких технологий до фундаментальных исследований.



основ защиты интересов женщин; расширение возможностей для самореализации женщин-сотрудниц как в служебной,

так и в академической сферах. Девушки-курсантки активно включились в диалог, представив свое видение перспектив про-

фессионального роста современной женщины в системе ОВД.

– Сегодняшняя молодежь – фундамент, на ко-

тором возводится интеллектуальный суверенитет Узбекистана. Активное вовлечение девушек в науку – не просто поддержка образования, а фактор устойчивого будущего страны, – подчеркнула сенатор Малика Кадирханова.

Встреча еще раз подтвердила: в Новом Узбекистане голос женщины звучит уверенно, а ее вклад в развитие общества и государства неocenim.

**Соб. корр.**

## Безопасный туризм

### КОГДА ПОМОЩЬ ПРИХОДИТ ВОВРЕМЯ

Системные меры по созданию благоприятной среды для путешественников в Хорезмской области приносят результаты, повышая привлекательность региона. В этом отношении особого внимания заслуживает деятельность сотрудников областного Управления по обеспечению безопасного туризма.



Старший лейтенант Шахзодбек Саби-ров на практике демонстрирует ответственный подход к службе, готовность прийти на помощь тем, кто оказался в сложной ситуации.

...01:30. В дежурную часть поступило сообщение о гражданине КНР, находящемся на площади перед железнодорожным вокзалом города Хивы. Выяснилось, что турист, имея при себе документы и личные вещи, остался на улице ночью из-за отсутствия денежных средств на оплату гостиницы.

По полученному сигналу сотрудником было оперативно организовано оказание практической помощи иностранному гражданину. Туристу предложили временно разместиться в специально оборудованной комнате на железнодорожном вокзале, где он смог остаться до дня своего отъезда. Безопасность гостя обеспечена, ситуация взята под контроль.

...03:10. Согласно очередному сообщению, гражданин Российской Федерации, прибывший в Хиву с туристической целью, по собственной невнимательности лишился барсетки. В ней находились денежные средства и документы – паспорт, водительское удостоверение.

Благодаря оперативной проверке записей камер видеонаблюдения удалось восстановить маршрут передвижения гостя. Выяснилось, что турист забыл барсетку в заведении, которое посещал ранее. Сумку с содержимым вернули владельцу. Учитывая позднее время, старший лейтенант Ш. Саби-ров помог туристу и с размещением в гостинице, обеспечив его безопасность.

По словам путешественников, оказанное внимание не только помогло им в сложившихся обстоятельствах, но и укрепило уважение к сотрудникам ОВД страны.

**Нилуфар ЖАББОРОВА,**  
соб. корр.

*Хорезмская область.*



## Dolzarb mavzu



**Farzandining nogiron tug'ilishi, atigi bir necha kun yashab nobud bo'lishi oqibatida Nodirning giyohvandligi bilan bog'liq ko'pchilikdan pinhon sirlar ochildi. Qancha g'avg'o, qancha janjal bilan yoshlarning nikohi bekor bo'ldi. Madina shundan buyon yolg'iz, onasining uyida sig'indi. Faqatgina ishga borib-kelib o'zini ovutadi, dardini aritadi. Sho'rlik ayol farishtadek qizalog'ini eslasa, butun vujudida achchiq taqdirning alamli og'riqlarini his etadi.**

Bu ayolning aybi nima? Murg'akkina qizaloqning-chi? Yosh oilaning baxti nega barbod bo'ldi? Bu savollarining javobi, ko'rguliklarning sabablari Nodirning giyohvandligiga borib taqalaveradi.

Afsus, bugun oramizda bunday og'riq bilan ezilayotganlar uchrab turibdi. Inson ongilligi bilan tabiatning eng oliy mavjudoti bo'lsa, illatlari bilan eng yomon maxluqqa aylanadi. Buning birgina ko'rinishi – giyohvandlik. Eng asosiysi va dahshatlisi giyohvandlikka ruju qo'ygan kimsaning o'zini o'zi boshqarish qobiliyatidan mahrum bo'lishi. Bu esa inson hayotining butunlay izdan chiqib, har taraflama tanazzuli degani. Bu yo'lga bilib kirdimi, adashib kirdimi – buning farqi yo'q.

Keyingi yillarda yer yuzida giyohvandlik vositalarini iste'mol qiladigan, uning g'ayriqonuniy savdosi bilan

shug'ullanadigan odamlar tobora ko'payib borayotganligi barchamizni ogoh bo'lishga undaydi. Chunki nogiron bolalarning dunyoga kelishi, naslning buzilishi, ajrimlarning ortishi, jinoyatchilik, fohishabozlik kabi illatlar asosida ham ayni shu balo yotishi hech birimizga sir emas.

Ma'lumotlarga ko'ra, dunyo bo'yicha 500 milliondan ortiq odam giyohvandlik dardiga yo'liqqan. Ularning aksariyat qismini 30 yoshgacha bo'lganlar tashkil etmoqda. Bu illat domiga tushib qolayotganlar soni esa kundan-kunga ortib bormoqda. Bu muammoning bir tomoni bo'lsa, giyohvandlikka chalingan bir nafar kimsaning yil davomida o'nlab irodasi sust kishilarni o'z safiga qo'shib olishi yana bir tashvishli holatdir.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, hozirgi paytda giyohvandlik og'ir va qiyin

davolanadigan kasallik hisoblanadi. Uning oqibatida insonda og'ir ruhiy, jismoniy, ma'naviy o'zgarishlar, ijtimoiy tushkunlikka tushib qolish holatlari kuzatiladi. Qolaversa, giyohvandlarda OITS yuqishi, immunitetning juda susayib ketishi, xavfli yiringli-infeksion kasalliklar paydo bo'lishi ko'p uchraydi.

Shuningdek, **kasallikda dastlab aniq alomatlar ko'zga tashlanmasligi, xastalik avj olganda esa uni davolash nihoyatda qiyin kechishi yoki amalda umuman davolab bo'lmaydigan hol vujudga kelishi ta'kidlanadi. Davolanishning murakkabligi shundaki, tibbiy yo'l bilan jismoniy bog'liqlikni yo'qotish mumkin, ruhiy bog'liqlikni esa bartaraf etish juda mushkul. Bunda metin iroda, sabr-bardosh hamda atrofdagilarning qo'llab-quvvatlashi suv bilan havodek zarur.**

Mamlakatimizda giyohvandlik vositalari, ularning analoglari va psixotrop moddalar, shuningdek, kuchli ta'sir qiluvchi moddalarning qonunga xilof ravishda muomalada bo'lishiga qarshi kurashish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga

oshirilmoqda. Ammo shunga qaramay, bugungi kunda giyohvandlik vositalarini internet orqali tarqatish va reklama qilishning yangi usullaridan foydalanish keskin ortmoqda. Shuningdek, ularni iste'mol qilish bilan bog'liq jinoyatlarga yoshlarni, ayniqsa, voyaga yetmaganlarni jalb qilish ham ko'payib bormoqda.

Ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda respublikamizda huquq-tartibot idoralari xodimlarining sa'y-harakatlari natijasida giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalarning noqonuniy muomalasi bilan bog'liq 15 412 ta jinoyat va 1 956 ta ma'muriy huquqbuzarlik aniqlangan. Shuningdek, tezkor tadbirlar natijasida 3 tonna 413 kg narkotik, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalarning noqonuniy muomalasiga chek qo'yilib, iste'molga chiqib ketishining oldi olingan. 14 yashirin narkolaboratoriya aniqlanib, ularda saqlangan jami 75 kg giyohvandlik vositalari va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar musodara qilingan. Narkojinoyat sodir etgan 11 ming 49 nafar shaxs javobgarlikka tortildi. Achinarlisi, jinoyatchilarning 59 nafarini maktab o'quvchi-

lari, 124 nafarini talabalar tashkil etgan.

Bu shunchaki sanoq emas, inson, avvalambor, yoshlar taqdiri bilan bog'liq tashvishli raqamlardir. Muammoning dolzarbligi ham shunda, aslida. Ba'zan hali maktabni tugatmagan bolalarning shundoqqina yo'l chekkasida sigaret tutatayotganiga nogahon ko'zimiz tushganda, bir og'iz tanbeh berishga ikkilanamiz yoki e'tiborsiz o'tib ketamiz. Aslida bizdagi ana shu e'tiborsizlik, yoshlardagi qiziquvchanlik biror ko'ngilsizlik kelib chiqishiga yetarlidir. Maqola avvalida keltirganimiz Madina ham shunday qurbonlardan bit-tasi. Oramizda u singari qurbonlar, oxiri berk ko'chaga bilib-bilmay kirib qolib, dardi ichida yurganlar qancha. Dardning og'ir-yengilligi esa har kimning o'ziga ayon.

Aytarimiz: ko'zingizni oching, bir qarashda qiziqish uyg'otib, go'yoki «charog'on» ko'ringan giyohvandlik ko'chasiga yaqin yo'lamang. Toki bu zararli odat, hayotiniz kushandasiga aylanmasin. Uning alam va iztiroblari baxtiyor kunlaringizga soya solmasin.

**Gulnoza TURG'UNBOYEVA,**  
o'z muxbirimiz.





## Kasb fidoyisi

# ZIYRAKLIK TALAB ETILADIGAN SOHA

Har qanday kasbda muvaffaqiyatning kaliti – to'g'ri berilgan ta'lim va tajribali ustoz o'g'itidir. Toshkent shahar IIBB YHXB YPX brigadasi 3-batalyon 2-safarbarlik guruhi inspektori, leytenant Islom Abdusharipovning sohada o'z o'rnini topishida va xizmat sirlarini mukammal egallashida uning ustozlari, katta serjant Sherarali Jo'rayevning o'rnini alohida. Ustozidan nafaqat kasbiy bilimlarni, balki fuqarolar bilan muomala madaniyatini, eng murakkab vaziyatlarda ham vazminlikni saqlab turishni o'rgangan.

Islombekning bu kasbga bo'lgan mehri bejiz emas. Oilasida el-yurt osoyishtaligini himoya qilishga bel bog'lagan akalari bor. Umrbek Matkarimov Chilonzor tumani IIOFMB HPB profilaktika inspektori, kapitan. Yana bir akasi esa Xorazm viloyatida majburiy ijro byurosida faoliyat yuritmoqda. Akalarining huquqiy idoralarda xizmat qilishi lavhamiz qahramonining o'z kasbiga bo'lgan sadoqati va mas'uliyatini yanada mustahkamlaydi.

Islom o'z xizmat vazifasini faqatgina yo'llarda harakat xavfsizligini ta'minlashdan iborat deb bilmaydi. Uning hushyorligi va har bir shubhali holatni to'g'ri baholay olishi natijasida bir nechta jinoyatlar ham fosh etildi. Xususan, Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan qonunbuzarlik bilan ayblanib, tergov organlaridan yashirinib yurgan va qidiruvda bo'lgan shaxslarni aniqlashda ham jonbozlik ko'rsatmoqda.

Xizmat faoliyati davomida, ayniqsa, qishning ayozli kunlarida, yo'llarda qor va muzlamalar hosil bo'lganda,



yordamga muhtoj haydovchilarga birinchilardan bo'lib ko'mak beradi. Yo'lda qolib ketgan ulovlarni yurguzib yuborish, nosoz transport vositalarini xavfsiz joyga olib chiqish, uning uchun avvalo insoniy xislat va ichki ishlar organi xodimi sifatidagi burchdir.

Mehribon oila boshlig'i bo'lgan Islom turmush o'rtog'i bilan uch nafar farzandini tarbiyalab, voyaga yetkazmoqda. Xizmatdagi mas'uliyat va qat'iyat farzandlar kamoliga bo'lgan e'tibor bilan uyg'unlashib ketgan. Oiladagi muhit va yaqinlarining qo'llab-quv-

vatlashi uning kundalik faoliyatidagi muvaffaqiyatlariga poydevor bo'lib xizmat qilmoqda.

Ziyraklik hamda sinchkov nigohni talab etadigan kasb egasi, leytenant I. Abdusharipov kabi o'z ishiga vijdonan yondashadigan xodimlar bor ekan, poytaxt ko'chalarida tartib va xavfsizlik, fuqarolar da esa ichki ishlar organlari xodimlariga nisbatan ishonch va hurmat yanada ortaveradi.

**Sarvar SOBIROV,**  
o'z muxbirimiz.  
**Abu KENJAYEV**  
olgan surat.

Toshkent shahri.

## Profilaktika xizmati

# BEFARQLIKKA O'RIN YO'Q

Yangiariq tumanidagi «Xo'jalar» mahallasi 2014-yilda tashkil etilgan bo'lib, 2600 nafardan ziyod aholi istiqomat qiladi. 609 ta xonadon, 701 ta oila bor. Har bir eshik ortida esa o'ziga xos taqdirilar yashaydi.



Mahallada 47 ta videokuzatuv kamerasi ishlab turibdi. Profilaktika inspektorining xizmat xonasiga ulangan kuzatuv kameralari, yuzni tanib oluvchi hamda avtotransport raqamlarini aniqlovchi texnologiyalar hududni nazoratda ushlashga xizmat qilmoqda. Ammo jinoyatni faqat kamera emas, insoniy yaqinlik to'xtatadi.

– Biz jinoyatga olib keladigan sabab va omillarni oldindan yo'qotishga harakat qilyapmiz, – deydi mahalla profilaktika inspektori, kapitan Sirojbek Masharipov. – «Xonadonbay» va «Fuqarobay» tartibida ishlab chiqilgan yo'l xaritalari doirasida joriy yilning har choragi uchun aniq chora-tadbirlarni belgilab olganmiz. Jinoyat qanday bo'lishidan qat'i nazar, u baribir jinoyat. Har birining ortida inson taqdiri bor. Shu

bois jinoyatga yo'l qo'ymaslik – asosiy vazifamiz.

Mahallada xotin-qizlar faoli bilan hamkorlik natijasida so'nggi uch yil davomida ayollar va voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyat qayd etilmagan. Bu raqam emas – bu oldi olingan fojialar. Mahallada 55 nafar ishsiz, 16 nafar uyushmagan yoshlar bor. Har biri bilan manzilli ishlash yo'lga qo'yilgan. Chunki loqaydlik jinoyatni chaqiradi. Negaki, eng xavfli dushman – befarqlik. Profilaktika inspektori xizmat uyida yashaydi, uch yildan beri mahalla to'ylarida qatnashadi, hatto ijtimoiy tarmoqlar orqali ham fuqarolar bilan bevosita muloqot qilib, ularni qiynayotgan masalalarga yechim izlaydi.

**Nilufar JABBOROVA,**  
o'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.

## Karantin xizmati

# SIFATLI MAHSULOT – SALOMATLIK GAROVI

Qashqadaryo viloyati IIB JXX JTSB Karantin bo'linmasi xodimlari vohadagi «Umakay», «Mingchinor» va «Shirinbuloq» muntazam YPX maskanlarida tun-u kun xizmat olib bormoqda. Xususan, viloyat Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish hududiy boshqarmasi xodimlari bilan birgalikda bozorlarga sifatsiz, iste'molga yaroqsiz hayvon go'shtlari kirib kelishining oldini olishga qaratilgan maxsus tadbirlar o'tkazib kelinmoqda. Hokimliklar, veterinariya xizmati va boshqa mutasaddi idoralar bilan hamkorlikda esa qassobxonalarda sifati go'sht va go'sht mahsulotlari sotilishi nazorat qilinmoqda.



Raqamlarga murojaat qiladigan bo'lsak, dehqon bozorlarida 422 marta, mol bozorlarida 212 marta, boshqa savdo majmualarida 128 marta,

1996-yil 18-yanvardagi «O'zbekiston Respublikasida odamlar va hayvonlarning quturish kasalligiga qarshi kurashni kuchaytirish chora-tadbiri-

aholi yashash joylarida 154 marta profilaktik reydlar va targ'ibot-tashviqot tadbirlari o'tkazildi. Natijada qassobxonalarda veterinariya-sanitariya qoidalariga rioya etmagan 32 nafar fuqaroga nisbatan ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirildi.

Bundan tashqari, bo'linma xodimlari Vazirlar Mahkamasining

lari to'g'risida»gi qarori, shuningdek, «Savdo shoxobchalari va bozorlarda go'sht mahsulotlarini sotishga qo'yiladigan talablar to'g'risida»gi yo'riqnoma talablari asosida faoliyat ko'rsatmoqda.

El salomatligi – yurt boyligi. Aholi salomatligini mustahkamlash esa, iste'mol qilinayotgan mahsulotlar sifatiga bevosita bog'liq. Karantin bo'linmasi xodimlari zimmalaridagi mas'uliyatli vazifani sidqidildan ado etib, aholi salomatligini muhofaza qilish yo'lida xizmat qilmoqda.

**Sodiq RAHIMOV,**  
o'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.





# ОТВЕТСТВЕННОСТЬ И РЕЗУЛЬТАТ: системный подход к укреплению дорожной безопасности

В июле 2025 года Президент Узбекистана Шавкат Мирзиёев подверг критике ситуацию с безопасностью дорожного движения в стране, отметив, что в каждой четвертой аварии погибает человек, а в среднем каждый день в ДТП умирают шесть человек. Глава государства потребовал усилить контроль и модернизировать дорожную инфраструктуру. Однако в январе текущего года анализ показал лишь незначительное снижение количества дорожно-транспортных происшествий – на 1,5 процента, при этом смертность в результате ДТП также сократилась незначительно – с 2 203 в 2024 году до 2 188 в 2025 году. Говорить о переломе в сфере детской дорожной безопасности также пока не приходится: количество ДТП снизилось примерно на 9,6 процента, число погибших уменьшилось на 12,8 процента (на 36). Таким образом, проблема остается актуальной.

В этой связи первый заместитель министра внутренних дел Узбекистана – начальник Департамента общественной безопасности генерал-майор Рустам Джумаев сразу после вступления в должность обозначил ключевой приоритет – кардинальное повышение безопасности на дорогах, взяв под личный контроль вопросы снижения ДТП и обеспечения комплексной безопасности дорожного движения.

Так, на совещании в СБДД ДОБ МВД, а затем в ходе командировок в Наманганскую, Ферганскую и Андижанскую области, где были заслушаны доклады руководителей территориальных управлений СБДД, глава Департамента указал на неэффективность мер по обеспечению безопасности на дорогах. Отмечено отсутствие системного анализа причин и условий, в результате которых происходят дорожно-транспортные происшествия, а главное – отсутствие механизма выработки действенных превентивных решений. Сложившаяся ситуация требует усиления персональной ответственности руководящего состава и рядовых инспекторов за вверенные им участки работы.

Проблема дорожно-транспортных происшествий с участием детей носит глобальный характер. По данным ВОЗ, ежегодно в мире в результате ДТП погибает около 1,19 миллиона человек.



Дорожно-транспортные травмы остаются одной из значимых причин смерти детей и подростков в возрасте 5–19 лет во всем мире. По оценкам специалистов, сотни тысяч несовершеннолетних ежегодно получают травмы различной степени тяжести, многие из которых приводят к инвалидности.

Эксперты подчеркивают, что эффективные меры – снижение скоростного режима вблизи школ и жилых зон, развитие безопасной пешеходной инфраструктуры, обязательное использование детских автокресел и систематическое обучение ПДД – позволяют существенно сократить смертность и травматизм среди несовершеннолетних. Между-

народный опыт показывает, что только комплексный подход, сочетающий инфраструктурные изменения, контроль и просветительскую работу, дает устойчивый результат.

Кроме того, на качественно новый уровень необходимо поднять работу по правовому воспитанию всех участников дорожного движения. В ходе поездок по регионам Ферганской долины было особо отмечено, что решение обозначенных проблем носит безотлагательный характер.

Перед руководителями поставлены следующие задачи.

Во-первых, закрепить за каждым ответственным сотрудником проблемный участок дороги (очаги ДТП, особенно с участием

детей). Сотрудник отвечает за весь спектр вопросов, влияющих на безопасность дорожного движения на участке: профилактику ДТП, пропаганду ПДД, наличие дорожных знаков, состояние дорожного полотна и др.

Во-вторых, необходимо сформировать у личного состава четкое понимание иерархии приоритетов: ключевыми задачами являются развитие инфраструктуры и профилактика ДТП, тогда как фиксация нарушений и оформление протоколов – производная задача, а не самоцель.

В-третьих, необходимо внедрить систему оценки ключевых показателей эффективности (KPI) служебной деятельности каждого сотрудника на основе следующих критериев:

- снижение числа ДТП на контролируемой территории;
- снижение количества погибших и пострадавших в ДТП;
- своевременность реагирования на аварийные ситуации и выявленные нарушения;
- процент раскрытых нарушений ПДД, в том числе в ходе профилактических мероприятий;
- эффективность внедрения мер профилактики.

Данные меры, как подчеркнул первый заместитель министра внутренних дел Узбекистана генерал-майор Рустам Джумаев, направлены на системное повышение безопасности дорожного движения и формирование культуры ответственности у всех сотрудников службы. Только комплексный подход позволит существенно снизить количество аварий и травм, а также повысить доверие общества к работе службы безопасности на дорогах.

**Информационная служба  
ДОБ МВД  
Республики Узбекистан.**

## Qilmish-qidirmish

# NOJO'YA ISH MA'MURIY QAMOQQA SABAB BO'LDI

Sobirjon (ismlar o'zgartirildi) kompyuterda dasturchilik qilib yaxshigina daromad olishi mumkin edi. Ammo oson yo'l bilan pul ishlab topaman degan xomxayol uni chalq'itdi. «Binense» ilovasidan akkaunt ochib, 5 oy davomida kripto-aktivlar oldi-sotdisi bilan shug'ullanib keldi.

Xo'sh, buning nimasi yomon, deysizmi? Davlatimiz rahbarining tegishli qarori hamda Istiqbolli loyihalar milliy agentligi buyrug'ida kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlarining faoliyati litsenziyalanishi qat'iy belgilab qo'yilgan. Sobirjon buni bila turib, tegishli tartibda litsenziya olmasdan, 2025-yil sentabrdan 2026-yil yanvarga qadar 501.59 USDT miqdoridagi 6 million

45 ming so'mga teng kripto-aktivlarni olish va ayirboshlashni amalga oshirdi. Ammo noqonuniy qilmishi uzoqqa cho'zilmadi. Uning noqonuniy ishlari Jizzax viloyati IIB Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish boshqarmasi mas'ul xodimlari tomonidan fosh etildi va sud qarori bilan huquqbuzar deb topildi. Unga nisbatan 15 sutka ma'muriy qamoq jazosi tayinlandi.

Yana bir holatda 21 yoshli talaba ham xuddi shunday huquqbuzarlikka qo'l urgani aniqlandi. Toshkent axborot texnologiyalari universitetida o'qiydigan Nozim «Telegram» ijtimoiy tarmog'ida ochilgan profilida «Wallet» boti orqali kripto-aktivlarni ayirboshlash bilan shug'ullangan. U 9 oy davomida qiymati 23 million so'mdan ortiq kripto-aktivlar muomalasini litsenziyasiz amalga oshirgan. Talabaga ham bu qilmishi

uchun ma'muriy qamoq jazosi tayinlandi.

Kiber olamda ishlab, pul topishni bilgan yaxshiku-ya, qonunlarni bilish ham zarar emas. Jizzaxlik yoshlarning noqonuniy faoliyati oqibatlaridan tengdoshlari zarur xulosa chiqarishi zarur.

**Sarvinov USMONQULOVA,  
katta leytenant.**

Jizzax viloyati.





## ► Migration and citizenship registration VIOLATORS FINED

The migration and citizenship registration department of the Ministry of internal affairs of the Republic of Karakalpakstan is carrying out systematic work to en-



sure compliance with the passport-visa regime and provide state services to citizens. During January of this year, ID cards were issued to more than 27 000 citizens, and international passports were processed for over 2 200 individuals. Additionally, department employees have established a practice of visiting the homes of persons with physical disabilities to register documents using mobile devices. As a result of «passport-visa» activities and inspections, 24 individuals who violated the rules of stay in our country were identified, and appropriate measures were taken against them.

## ► Guardian of tourists

### AN HONORABLE AND RESPONSIBLE TASK

Captain Sunnat Ergashev, a senior inspector of the Bukhara region internal affairs department's tourism safety service, has been serving selflessly to maintain public order and ensure the safety of tourists in the historical areas of the region. Throughout his career, he has effectively utilized the capabilities of the modern «safe city» system, demonstrating high professionalism in locating lost items for foreign guests and providing them with practical assistance. Having assisted over 1 300 local and foreign tourists within a single year, captain S. Ergashev also actively participates in studying issues at cultural heritage sites and identifying illegally operating establishments, making a worthy contribution to increasing the tourism appeal of our country.




## ► Professional contest

### NODIRA WINS THE QUALIFYING SPOT

The regional stage of the «Devoted female employee» contest was held in the Navoi region to encourage women serving in internal affairs bodies with dedication, courage, and a high sense of responsibility, as well as to showcase their professional potential. According to the first stage of the competition,

the participants' physical fitness, endurance, and agility were evaluated. In the second stage, their combat readiness, practical skills essential for service, and professional expertise were put to the test. In the third stage, participants demonstrated their knowledge by answering electronic test

questions. The competition, characterized by intense and uncompromising rivalries, was also a challenge for the jury. Based on the overall results, lieutenant colonel Mahzuna Rakhmonova, an officer of the investigation department under the regional internal affairs bureau, took 3rd place. Second place went to senior lieutenant Dirlabo Ikromova, senior inspector of the public safety service. Lieutenant colonel Nodira Yesamuratova, an operative of the operational search service who recorded the highest result, was awarded 1st place and secured her spot in the final stage of the «Devoted female employee» contest, which will be held as part of the 5th republic women's forum.



## ► Preventive service



### NO ROOM FOR INDIFFERENCE

A unique system for ensuring safety and preventing crime has been established in the «Xo'jalar» neighborhood of the Yangiariq district in the Khorezm region. Captain Sirojbek Masharipov, the neighborhood prevention inspector, addresses the root causes of crime through «house-by-house» and «citizen-by-citizen» working methods in this area of over 2,600 residents. Although 47 modern surveillance cameras are installed, the primary focus remains on human connection and cooperation with neighborhood activists. As a result of these measures, no crimes have been recorded among women or minors over the past three years. The fact that the prevention inspector lives in a service house within the neighborhood and maintains direct communication with residents including through social media-serves as a vital factor in promptly resolving issues and preserving peace.

## ► Profession devotee

### A FIELD REQUIRING VIGILANCE

Lieutenant Islom Abdusharipov, an inspector of the Tashkent city main department of internal affairs traffic safety service, demonstrates a high level of alertness and humanity alongside his primary duty of ensuring road safety. Having grown up in a family



of military and law enforcement officers, he sets an example for his colleagues by actively participating in the detection of crimes and identifying wanted persons. His dedication is particularly evident when he is among the first to assist stranded drivers during harsh weather conditions, viewing it as both a personal trait and a professional duty. By applying the principles of professional culture and composure learned from his mentors, Islom Abdusharipov contributes significantly to maintaining order and safety on the capital's streets, while also being a devoted father of three children.



## Ma'naviyat va ma'rifat darsi

## TIL – MA'NAVIY KAMOLOT KALITI

**Til nafaqat muomala vositasi – balki xalqning madaniyati, urf-odati, uning turmush tarzi, tarixidir. Til odamning onglilik darajasini belgilovchi omil sanaladi. Shu sabab, insonning ikki og'iz so'zidanoq, uning ongi, saviyasi, bilimi, qiziqish olami, tabiati va tiynatini anglab olish qiyin emas. Odamning ma'naviy saviyasi ham uning tilida, chiroyli nutqida namoyon bo'ladi.**

Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida «Erdam boshi tildir», ya'ni «Barcha fazilatlar, ezguliklar tildan boshlanadi» deyiladi. Buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy bobomiz esa «Ko'ngil maxzanining qulfi til va ul maxzanning kalitin so'z bil», deyдилar. Ya'ni, inson qalbining xazinasi til, bu qalb xazinasining kaliti so'zdir.

#### SUVSIZ DARYO, TILSIZ MILLAT BO'LMAYDI

O'zbek tili dunyodagi qadimiy va boy tillar qatoriga kiradi. Chunki bu tilning so'zlari shu qadar keng ma'noliki, bitta ma'noga ega bo'lgan tushunchani, bir necha so'zlar orqali ifodalash mumkin. Masalan, birgina ko'z so'zining bir necha ma'nolari bor. Bilamizki, bir tushunchaga tegishli so'z, bir necha so'zlar bilan ifodalansa, ya'ni sinonim so'zlari qanchalik ko'p bo'lsa, ayni shu til boy til hisoblanadi.

Suvsiz daryo, tilsiz millat bo'lmaydi. Biror millatga mansub bo'lgan til, o'sha millat bilan yashaydi va bardavom bo'ladi. Ota-bobolarimiz qadimdan tilni asrab-avaylashgan, rivojlantirishgan. Shu sababli, ona tilimizni asrab-avaylash, uni boyitishimiz va avlodlarga to'liqligicha yetkazishimiz kerak. Darhaqiqat, tilsiz millat rivojlanmaydi, taraqqiy etmaydi.

Bu fikrlar tasdig'ini buyuk qirg'iz adibi Chingiz Aytmatovning «Toki til mavjud ekan – xalqning umri boqiydir. Har bir til muayyan xalq uchun aziz hisoblanadi. Har birimiz bizni voyaga yetkazgan, bizga eng bebaho boyligini – tilini hadya etgan xalq oldida qarzidormiz: tilimizning sofligi uchun, boyishi uchun jon kuydursak, farzandlik burchini ado etgan bo'lamiz» fikrlarida ko'rish mumkin.

Mana shunday ezgu maqsadlar ro'yobi uchun mamlakatimizda mustaqillikning ilk damlaridanoq «Davlat tili haqida»gi qonun, keyinchalik esa Prezidentimiz farmoni va qator qarorlar qabul qilindi.

#### BIZGA QONUN NIMAGA KERAK EDI?

«Til haqidagi qonun bizga nima uchun kerak? G'ururimizni namoyish qilish uchunmi? Izzat-nafsimizni qondirish uchunmi? Yo'q. Bizga til haqidagi qonun o'zligimizni saqlab qolish uchun, tilimizni yo'qotib qo'ymaslik uchun, o'zbek degan xalqning yo'q bo'lib ketmasligi uchun kerak», deydi suyuqlik shoirimiz Erkin Vohidov.

Chunki til millatni dunyoga tanitadigan ma'naviy asos, uning muhim belgisi, uzviy va ajralmas bir bo'lagidir. Tillar – insoniyatning umumiy boyligi. Insonning tilini bilmasdan turib, u bilan fikrlashish imkonsiz. Boshqa bir xalqning madaniyatini anglash uchun ham o'sha xalq tilini bilish talab etiladi. Xalqimiz buni lo'nda-gina qilib: «Til bilgan – el biladi», deb ta'riflaydi.

Har bir millatni millat qilib turadigan narsa bu til birligi. Buning uchun qachonki har bir o'zbek, shu millatning barcha farzandi o'z mulkini saqlagandek asragina kelajak avlod o'zbek tilining merosxo'ri sifatida o'zini namoyon qiladi. Shuning uchun qonun va qarorlar juda muhim ahamiyatga ega. Ular nafaqat huquqiy hujjat, balki eslatma, dastur, qo'llanma vazifasini ham o'taydi.

Inson uchun uning Vatani, ota-onasi, oilasi qanchalik qadrlil bo'lsa, uning ona tili ham shu qadar aziz va muqaddas bo'ladi. Prezidentimiz ta'biri bi-

da ajralib turadi. Bundan tashqari, Navoiy qayerda «so'z» kalimasini ishlatarkan, u qaysi mazmunda kelishidan qat'i nazar, adabiyot bo'ladimi, o'zaro muloqotlarda



**AJDOD TILI,  
AVLOD TILI –  
DAVLAT TILI!**



lan aytganda, «Bugungi kunda biz yangi O'zbekistonni, yangi Renessans poydevorini barpo etishdek ezgu maqsadlarimizga erishishda, hech shubhasiz, ona tilimizning hayotbaxsh qudratiga tayanamiz».

#### QUDRATIMIZ MANBAI QAYERDA?

Qudratimiz manbayi, avvalo adabiyotlarda, buyuk ajdodlarimiz yaratgan asarlarda yaqqol namoyon, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Masalan, Navoiy bobomiz o'z asarlarida «so'z» istilohi rang-barangligi, mazmunan kengligi bilan alohi-

bo'lsin (nutq, notiqlik, til, so'z va so'zlash vositasi, axloq, kishilar orasidagi munosabat va boshq.) haqida ham fikr yuritadi.

Kimki ko'ngilni qattiq so'z bilan jarohatlarkan, unga achchiq til zaharli nayzadek sanchiladi. Ko'ngilda til nayzasining jarohati bitmas, u jarohatga hech narsa malhamlik qilmas. Agar bir ko'ngilda til nayzasining jarohati bordir, faqat yaxshi so'z va shirin til unga malham va rohatdir. Muloyim so'z – vahshiylarni ulfatga aylantiradi, sehrigar – ohang bilan afsun o'qib, ilonni inidan chiqaradi, deydi buyuk bobomiz.

Shuningdek, alloma shoir so'zning ahamiyatiga va qo'llanilishiga alohida e'tibor qaratishga undaydi.

**Bo'lmasa so'z ajab  
balo bo'lg'ay,  
Bulbuli nutq benavo bo'lg'ay.  
Donai dur so'zini afsona bil,  
So'zni jahon bahrida  
durdona bil.**

Ulug' mutafakkir o'z zamon-doshlarining har qanday badiiy asarini «so'z» deb ataydi:

**So'zingniki yaxshi  
ko'rarsan o'zing,  
Ko'rinmas yomon chun erur  
o'z so'zing.**

Yoki:  
**Sen o'zingni tonimas  
ermishsan,  
O'z so'zingni tonimas  
ermishsan.**


Xalqimiz esa purma'no hikmatlar sohibi bo'lgan buyuk bobomizning serma'no so'zlariga uyqash tarzda «O'zingga qarab kutarlar, so'zingga qarab kuzatarlar» – degan maqolni aytishadi.

Xulosa o'rnida aytmoqchi bo'lganimiz shuki, til masalasi mana shunday biz o'ylaganimizdan ham bir necha chandon dolzarb masaladir. Unga avar onalaridek yondashilmasa, odam emas, til o'ladi. Til o'lsa, bilingki, millat yo'qoladi.

**Shuhrat RO'ZIYEV,  
o'z muxbirimiz.**



*Qoraqalpog  
tilidagi matn.*



*Rus tilidagi  
matn.*





## Nuqtayi nazar



# MAHALLANGIZ AHILMI?..

**D**avlatimiz rahbari Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasida: «Albatta, bugungi murakkab zamonda yoshlarimizni turli sinovlarga chidamli, vatanparvar insonlar etib tarbiyalash, xalqimizni yanada birlashtirish va jipslashtirishda, hech shubhasiz, o'zini o'zi boshqarishning noyob tizimi bo'lgan mahallaning o'rni va ahamiyati katta» – deya ta'kidlagan edi.

Darhaqiqat, mahalla jamiyati-mizning eng qadimiy va eng ta'sirchan ijtimoiy tuzilmalaridan biridir. Bir paytlar mahalla ahli har bir xonadonning quvonchini ham, dardini ham o'ziniqiday qabul qilgan. Birovning bolasi muvaffaqiyatga erishsa, butun mahalla bundan faxrlangan. Yoshlar keksalarning gapini ikki qilmagan. Kimningdir boshiga musibat tushsa, ko'plashib dalda bo'lishgan. Hashar yo'li bilan kam ta'minlangan oilalarga uy-joy qurib berilgan.

Bugun-chi? Fuqarolar o'zini mahalla-ko'y bilan qay darajada bog'liqligini his qilishadi? Ular nuroniylarning pand-u nasihatiga, maslahatiga, o'git-u tavsiyalariga quloq osishadimi? Mahalla tarbiya o'chog'i sifatidagi vazifasini qay darajada bajaryapti?

Ayni paytda ushbu tuzilmaning faoliyat qamrovi ancha kengayganini tan olish kerak. Mahalla yettiligi birgalikda harakat qilganda, yaxshi natijalarga erishyapti. Ko'pgina mahallalarda voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, ishsiz yoshlarni kasbga yo'naltirish, muammoli oilalar bilan manzilli ishlash samara bermiqda. Hududiy profilaktika inspektorlari va yoshlar yetakchilari uyma-uy yurib, xavf guruhiga kiruvchi yoshlar bilan suhbatlashib, ularga to'g'ri yo'l ko'rsatishmoqda.

Ammo bugun ayrim mahallalarda odamlar bir-biriga befarq bo'lib borayotganidan ham ko'z yumib bo'lmaydi. Qo'ni-qo'shni-

ning holidan xabar olish, dardini tinglash yo'q. Hatto qarindoshlar o'rtasidagi mehr-oqibat ham susaygan. Ba'zi mahalladoshlar uyni baland qilib qurish, to'yini dabdabali o'tkazish bobida bir-biri bilan musobaqalashadi. Ilgari mahallada bir oqsoqolning gapi bilan yosh kelin-kuyov yarashib ketardi. Bugun esa aksar er-xotinlarda «Menga aql o'rgatmanglar, o'zim bilaman» degan kayfiyat ustun. Ko'p qavatli uylarda bir-birini tanimaydigan qo'shnilar ham bor.

Bu yil yurtimizda «Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili» deb e'lon qilindi. Chunki mahalla rivojlansa, mamlakat taraqqiy topadi. Mahalla tinch bo'lsa, yurt tinch bo'ladi. Shunday ekan, mahalla fuqarolar yig'ini o'z hududida yashovchi fuqarolarning manfaatlarini himoya qilishi, ijtimoiy masalalarni hal etishi va davlat bilan aholi o'rtasida ko'priklar vazifasini bajarishi lozim.

Mahalla raislari va faollari o'z vakolati doirasida milliy qadriyatlarini, oilaviy rishtalarni mustahkamlash, qo'ni-qo'shnichilik munosabatlarini yaxshilash, aholining muammolarini hal etish, nuroniylarning nufuzini oshirish, yoshlarda mehr-oqibat va mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish yo'lida tizimli ish olib borishi zarur. Ana shundagina mahalla tom ma'noda tarbiya o'chog'iga aylanadi.

**Mahliyo XOLOVA,**  
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.

## Soha fidoyisi

# MASHAQQATLI MASHQLAR EVASI

**S**irdaryo viloyati IIB Tezkor vazifalarni bajaruvchi safarbarlik otryadi (TVBSO) guruh komandiri, leytenant Furqat Saidahmedov xizmat faoliyati davomida qo'l jangi, boks kabi sport turlari bilan shug'ullanishni kanda qilmadi. Jinoyatchini qanday zararsizlantirish, uni qo'lga olishda qanday usullardan foydalanish kerakligi mashg'ulotlarning asosiy maqsadiga aylanardi. Mashqlar amaliyot bilan boyitilar, yo'l qo'yilgan xatolar doim muhokama qilinib, bartaraf etilib borilardi.



Jinoiy olam vakillariga qarshi kurashish xodimidan doimo ularning xatti-harakatini to'g'ri baholashni, kuchli irodani talab etadi. Qolaversa, mashaqqatli mashqlar o'z mevasini beradi. O'g'rilik bilan shug'ullangan ohangaronlik tog'a-jiyanlarni qo'lga olish operatsiyasi buning yaqqol isbotidir.

2019-yil kech kuzida Olmaliq – Jizzax avtomagistralida noma'lum shaxslar yo'lining chetida kechasi to'xtagan yuk avtomobillarini tunab keta boshladi. Ular haydovchi biror mehmonxonada dam olayotganidan foydalanib, yuk avtomashinasining peshonasini sindirib, kabinasidagi pul va qimmatbaho buyumlarni o'g'irlab ketishardi. Haydovchilar million-million so'mlik zarar ko'rishgandi.

Ushbu jinoyatlar anchagacha ochilavermadi. Navbatdagi muhokama vaqtida jinoyatchilarni fosh etishning puxta rejasi tuzib chiqildi. Operatsiyaga rahbarlik qilish Furqat Saidahmedovga topshirildi. U o'z xodimlari bilan Farg'ona vodiysini Jizzax bilan bog'laydigan yo'lida bir necha hafta pistirmada turishiga to'g'ri keldi. Nihoyat izg'irin sovuqda kechasi ularni jinoyat ustida qo'lga olish operatsiyasi boshlandi. O'g'rilar tog'a-jiyan bo'lib chiqishdi.

Giyohfurushlarni qo'lga olish tadbiri ham ana shunday murakkab kechgandi. O'shanda yog'in-sochinli oktabr oyi edi. Tezkor ma'lumotlar

orqali Tojikistondan katta miqdorda geroin olib kelinayotgani aniqlandi. Furqat Saidahmedov boshchiligidagi guruh oldiga jinoyatchilarni tutish vazifasi qo'yildi. Xalqaro jinoyatchilar o'ta yashirin, nihoyatda ehtiyotkorlik bilan ish ko'rar, hatto bir-birini tanimasdi. «Yuk» belgilangan manzilga olib kelinib, keyingi guruhga lokatsiya tashlab berilardi.

Lavhamiz qahramoni ikki nafar hamkasbi bilan Sirdaryo tumanining eski aerodromi o'rnidagi bug'doyzorda poylab yotishdi. Uch kecha-yu uch kunduz pistirmada turishning o'zi bo'ladimi?! Buning uchun qanchalik qat'iyat, iroda, mas'uliyat kerak. Nihoyat uchinchi kechadagina dalaga «Opel» avtomobili kirib keldi. Undan ikki nafar noma'lum shaxs bir qop yukni tushirib, ko'ma boshladi. Shu payt ularning qarshisida xodimlar to'satdan paydo bo'lishdi.

Biz Sirdaryo viloyati IIB TVBSO guruh komandiri, leytenant Furqat Saidahmedovning xizmat faoliyatidan ayrim misollar keltirdik, xolos. U baxtli oila sohibi, turmush o'rtog'i bilan uch qiz, bir o'g'ilni tarbiyalab voyaga yetkazishyapti. Farzandlari dadasining el osoyishtaligini ta'minlashdek ezgu ishga kamarbasta ekanidan faxrlanishadi.

**Abdurahmon MUSTAFOQULOV,**  
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.



## Sulola

## EZGULIKKA BAXSHIDA UMRLAR

Ichki ishlar organlarida xizmat avloddan avlodga o'tsa, bunday sulolalar tizim barqarorligi, tajriba uzluksizligi va ma'naviy merosning yorqin namunasiga aylanadi. Surxondaryolik Namozovlar oilasi ana shunday ibratli sulolalar safidan joy olgan.

Iste'fodagi mayor Xudoyberdi Namozov 1983–2007-yillar davomida ichki ishlar organlarida fidokorona xizmat qildi. U Uzun tumani IIB Qo'riqlash bo'linmasi va viloyat IIB huzuridagi Qo'riqlash boshqarmasida turli lavozimlarda ishlab, jinoyatchilikka qarshi kurashish, jamoat xavfsizligini ta'minlash borasida boy amaliy tajriba to'pladi. Xususan, o'g'rilik, bezorilik, giyohvandlik bilan bog'liq jinoyatlarni «issiq izida» fosh qilishda ko'rsatgan jonbozligi uning kasbiga bo'lgan sadoqatini yaqqol namoyon etadi.

Darvoqe, Xudoyberdi akaning otasi – marhum Sa'far Namozov 1938–1965-yillarda tizimda xizmat qilgan.

Shu boisdur, u o'z farzandlarini ham vatanparvar, qat'iyatli, bir so'zli qilib tarbiyaladi. Natijada ikki o'g'li bugungi kunda ichki ishlar organlarida mas'ul lavozimlarda xizmat qilib, bobosi va otasi izidan bormoqda. Chunonchi, katta o'g'li, podpolkovnik Azimjon Namozov 22 yildan beri Uzun tumani IIB tizimida faoliyat ko'rsatib keladi. 2025-yilda fidokorona xizmatlari munosib baholanib, III darajali «Ichki ishlar organlarida benuqson xizmatlari uchun» ko'krak nishoni bilan taqdirlangan.

X. Namozovning ikkinchi o'g'li podpolkovnik Azamat Namozov esa 21 yillik xizmat faoliyati davomida tizimning



eng murakkab, nihoyatda mas'uliyatli sohaviy xizmatlarida samarali faoliyat yuritdi. Ayniqsa, 2021-yili chegara hududida 61 kilogramm giyohvandlik moddasini musodara qilishdagi ishtiroki uning jasorati va kasbiy tayyorgarligi yuqori ekanini anglatadi.

Ichki ishlar organlarida sulolaviy xizmatning o'ziga xos ustun jihatlari mavjud.

Avvalo, bunday oilalarda kasbga nisbatan hurmat, intizom va mas'uliyat tuyg'usi bolalikdan shakllanadi. Qolaversa, avloddan avlodga o'tadigan hayotiy saboqlar, berilgan o'gitlar, maslahatlar juda asqatadi.

– Otamning o'gitlarini olib, shu darajagacha yetdik. U kishi bizni qat'iyatli bo'lishga o'rgatdi, aytgan gaplaridan chiqmaslikka

harakat qildik. Haligacha maslahatlariga quloq tutamiz. Otamizning hayot yo'li biz uchun katta maktab, tajriba vazifasini o'tagan. Biz, uchinchi avlod vakillari, el-yurt tinchligi uchun xizmat qilishni o'zimiz uchun sharafl deb bilamiz, – deydi podpolkovnik Azamat Namozov.

**Feruza RAHMONQULOVA,**  
o'z muxbirimiz.  
Surxondaryo viloyati.

## Mulohaza

## OTA BO'LISH OSON, OTALIK QILISH QIYIN...

**Kechagina baxtli ko'ringan bir oila bugun parokandalik ostonasida. Er-xotin ajrashish payida. O'rtada esa hali hayotni anglab ulgurmagan ikki nafar begunoh go'dak. Ona xayolida bitta savol: «Bu bolalar bilan qayerga boraman?» Ota esa boshqa tashvishda — qanday qilib alimentdan qochish mumkin?**

So'nggi paytlarda ijtimoiy tarmoqlarda aliment to'lashdan bo'yin tovlayotgan otalar haqidagi xabarlar tez-tez ko'zimiz tushmoqda: «Qidiruvdagi ota choyxonadan topildi», «Uy qudug'ida yashirib yurgan ekan»... Hatto shu tufayli bolasi va ayoli hayotiga zomin bo'lgan erkaklar ham yo'q emas. Bu xabarlar jamiyat ma'naviyatidagi og'riqli nuqtalarning aks-sadosidir.

«Ota bo'lish oson, otalik qilish qiyin», deydi xalqimiz. Chindan ham, farzand ko'rish Allohning ne'mati, ammo uni voyaga yetkazish, to'g'ri yo'l ko'rsatish, har qadamda ibrat bo'lish — butun umr zimmadan soqit bo'lmaydigan burch, mas'uliyat. Afsuski, ayrim erkaklar bu mas'uliyatni unutayotgandek.

Albatta, hayotda qorli-yomg'irli, sinovli kunlar ham bo'ladi. Bular moliyaviy muammolar, salomatlikka doir qiyinchiliklar, munosa-

batlardagi chigalliklarni o'z ichiga olishi mumkin. Ana shunday sinovlar oilaning beqaror yoki barqarorligini ko'rsatadi.

Ba'zan oila darz ketsa, er-xotin turli sabablarga ko'ra uni saqlab qolish imkoniga ega bo'lmasa, bu ham hayotning bir haqiqatidir. Af-

suski, ajrimlar eng avvalo shu oilada voyaga yetayotgan bolalar qalbini yaralaydi. Ko'pincha ularning ko'ngli kemptik, odamovi, hatto tajovuzkor bo'lib ulg'ayayotganini kuzatamiz. Shu bois kattalar o'rtasidagi adovat, qasdlashish va nafrat bola qalbida butun umr bitmas jarohat qoldirishini unutmasligimiz kerak.

Ajragan ayol uchun eng muhim savol shunday: «Yolg'iz o'zim bolamni qanday parvarish qila olaman?». Bunday vaziyatlarda u ko'pincha aliment undirish uchun sudga yoki

ijro byurosiga murojaat qiladi. Ba'zi ayollar bu yo'lni alamzadalik hissi bilan qo'llaydi, boshqalari esa hayotdagi noilollik tufayli tanlashga majbur bo'ladi.

Afsuski, jamiyatda aliment to'lamaslik uchun o'zini ishsiz qilib ko'rsatuvchi yoki ish joyidagi maoshini sun'iy ravishda kam ko'rsatayotgan erkaklarni ham uchratishimiz mumkin. Alimentdan qochish — bu faqat qonunni buzish emas, bu — otalik burchidan va insoniylikdan qochishdir. Pul bilan bolaning moddiy ehtiyojini ta'minlash mumkin. Lekin har bir bola otasining mehrini, e'tiborini, suyanchini his etishni, o'rtoqlari oldida otasi bilan faxrlanishni orzu qiladi. Kattalarning har bir so'zi va har bir qadami bola uchun hayotiy darsdir.

Asrlar davomida xalqimizda ota so'zi hal qiluvchi, ota shaxsi ulug' bo'lib kelgan. Ota — boquvchi, hi-moyachi, yo'l ko'rsatuvchi, ma'naviy ustoz. U rahbarlik imtiyoz emas, mas'uliyat ekanini hech qachon unutilmasligi kerak.

**Adolat FAYZIYEVA,**  
o'z muxbirimiz.





Situatsion markaz

# TEZKORLIK – DAVR TAQOZOSI

Buxoro shahrida yashovchi R.Boynazarov (ism-shariflar o'zgartirildi) 1-yanvar kuni viloyat IIBning «102» tizimiga qo'ng'iroq qilib, 1980-yilda tug'ilgan, ruhiy kasal bo'lgan opasi o'tgan yilning 30-dekabrida uyidan chiqib ketganini bildirib, uni topishda amaliy yordam berishni so'radi. Viloyat IIB Tezkor boshqaruv markazi xodimlari tomonidan bedarak yo'qolgan shaxsning Buxoro shahar hududida yurganligi «Qalqon» platformasiga integratsiya qilingan kuzatuv kameralariga tushganligi aniqlandi va bu ma'lumot shahar IIOFMB TQX tezkor xodimlariga yuborildi. Shu tarzda bedarak yo'qolgan ayol topildi va oila a'zolariga qaytarildi.

Markaz xodimlari tomonidan «Qalqon» tizimi orqali kuzatuv kameralari ko'zdan kechirilganda, davlat raqami 80D712DD bo'lgan «Lacetti» rusumli transport vositasi shubha uyg'otganligi sababli, viloyat IIB JXX YHXB navbatchilik qismiga ma'lum qilishdi. YPX inspektorlari ushbu avtomashinani to'xtatib, belgilangan tartibda hujjatlari va davlat raqam belgisi tekshirilganda, transport vositasining asl davlat raqam belgisi 80P712BB ekanligi ma'lum bo'ldi. Shu bois qalbaki davlat raqam belgisini taqib yurganligi sababli, tegishli tartibda bayonnoma rasmiylashtirildi va transport vositasi vaqtinchalik saqlash uchun jarima maydonchasiga joylashtirildi.

Shuningdek, Kogon tumani «Navro'z» mahallasi-da yashovchi, 2003-yilda tug'ilgan, tuman IIB JXX Probatsiya bo'limi nazoratida turuvchi, ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan M.Sh. sud tomonidan bir qator taqiqlar qo'yilganiga qara-

ramasdan, o'tgan yilning 4-dekabr kuni soat 21:11da Kogon shahri Bobur nomli mahalla hududida joylashgan Game Clubga o'rnatilgan kuzatuv kamerasiga tushganligi markaz xodimlari tomonidan aniqlandi.



Yana bir misol. Buxoro shahri Piridastgir ko'chasi-dagi ko'p qavatli uylarning birida istiqomat qiluvchi P.Sh. ismli fuqaro e'tiborsizligi tufayli fuqarolik pasportini yo'qotib qo'yganligi uchun 22-yanvar kuni «102»ga qo'ng'iroq qiladi. Markaz xodimlari tomonidan shu hududda o'rnatilgan kamera-

lar orqali aniqlanishicha, bir kun oldin fuqaro M.I.ga o'ziga tegishli bo'lgan «Damas» rusumli avtomashinasida harakatlanib ketayotgan vaqtida yo'ldan topib olganligini shahar IIOFMB 3-sonli IIB navbatchilik qismiga bildirdi.

– Keyingi yillarda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi tufayli ko'plab sohalarda raqamlashtirish va zamonaviy vositalar-

natijalar qo'lga kiritilishiga erishildi. Xususan, markazga qarashli «Xavfsiz shahar» tizimining yagona apparat-dasturiy platformasi tashkil etilgani joylardagi holatni real vaqt rejimida kuzatish, sodir bo'layotgan huquqbuzarliklarni aniqlash hamda jinoyatlarning qisqa vaqtlarda fosh etilishiga zamin yaratmoqda. Qolaversa, viloyatning 516 ta mahallasidagi 5 mingga yaqin aholi yashash joylari va noturar obyektlariga o'rnatilgan 20 mingdan ortiq kuzatuv kameralaridan 15 mingga yaqini yuzni aniqlovchi, 360 graduslik, kuzatuv va avtomashinalar davlat raqam belgisini aniqlovchi kameralar «Xavfsiz shahar» yagona apparat-dasturiy platformasiga integratsiya qilindi. Bundan tashqari, qidiruvda bo'lgan, bedarak yo'qolgan, probatsiya hisobida turgan, ma'muriy nazoratga olingan va jinoyat sodir etishga moyil alohida toifadagi shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar «ogoh» signallari tizimiga kiritildi.

O'tgan davr mobaynida tizim yordamida 55 ta jinoyat «issiq izida» fosh qilindi. 114 nafar qidiruvdagi shaxs ushlandi, 26 nafar

bedarak yo'qolgan shaxs aniqlandi. 68 nafar yo'qolgan va adashgan voyaga yetmaganlar ota-onalariga topshirildi. Shuningdek, probatsiya nazorati bo'lgan ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan 245 nafar shaxs va ma'muriy nazorat o'rnatilgan 481 nafar shaxsning sud tomonidan belgilangan cheklashni buzish holatiga yo'l qo'yishgani dalillar bilan tasdiqlab berildi. Bundan tashqari, 116 ta yo'qolgan buyumlar topilib, egalari qaytarishga erishildi. 719 ta qidiruvda bo'lgan avtotransport vositalari ushlandi.

Joriy yilda viloyat hududida yana 32 mingdan ortiq yuzni tanib oluvchi va avtomashinalar davlat raqam belgisini aniqlovchi kameralar o'rnatilib, markazga integratsiya qilinishi bilan birgalikda, kameralar xizmat ko'rsatuvchi serverlar soni 46 tadan 100 taga yetkazilishi rejalashtirilgan. Bu bilan jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olishga imkoniyat tug'iladi, aholi kundalik hayotining xavfsizligini ta'minlash sifati ortib boradi.

**Mirzoqul AHADOV,**  
o'z muxbirimiz.  
Buxoro viloyati.





## «Xavfsiz shahar»

## OGOHLIK BOR JOYDA...

Hozirda mahalla rahbarlari va mahalliy organlar o'zaro hamkorlikda aholi orasiga kirib, huquqbuzarliklarning oldini olishda samarali faoliyat ko'rsatmoqda. Xususan, Namangan mahallalarida xavfsiz muhitni ta'minlash va «Xavfsiz shahar» tamoyili orqali jamiyatda tinchlikni mustahkamlashga katta e'tibor qaratilmoqda.

Namangan shahar IIB Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limi katta inspektori, kapitan Shokirjon Tursunov jinoyatchilikni jilovlash borasida qarshi olib borilayotgan ishlar haqida batafsil so'zlab berdi:

– O'tgan yil davomida Namangan shahar IIB hamda tegishli idora va tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlik samarasi o'laroq, jinoyatchilikka qarshi kurashda muayyan natijalarga erishildi. Biroq bu barcha muammolar bartaraf etildi, degani emas. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, jinoyatlarning aksariyati oilaviy va maishiy kelishmovchiliklar tufayli sodir etilgan. Masalan, «Yangi hayot» mahallasidagi qo'shnilar o'rtasidagi janjal oqibatida bir fuqaro oshxona pichog'i bilan ikkinchisining ko'krak qismiga zarba bergan. Ushbu holat yuzasidan Jinoyat kodeksining 104-moddasi 2-qismi bo'yicha jinoyat ishi qo'zg'atilgan.

Hozirgi kunda shaharda har 100 ming aholiga 245,3 ta jinoyat to'g'ri kelmoqda va bu ko'rsatkich bo'yicha viloyatda to'rtinchi o'rin qayd etilgan. Bu holat IIB, Milliy gvardiya va mahalla organlari xodimlari oldiga yanada samarali hamkorlik qilish, aholi-ning huquqiy madaniyatini oshirish va jinoyatga nisbatan mutlaqo murosasiz muhit yaratish vazifasini qo'yadi.

«Obod va xavfsiz ma-

halla» tamoyili asosida 4314 nafar huquqbuzarlik sodir etish yoki undan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxs yuzasidan profilaktik xulosalar tayyorlandi. Ular hokim yordamchilari, ayollar faollari, yoshlar yetakchilari, ijtimoiy xodimlar va soliq inspektorlariga biriktirilib, manzilli ishlar olib borilmoqda. Bu kabi chora-tadbirlar jinoyatchilikni kamaytirish, aholi orasida huquqiy ong va mas'uliyatni oshirish, eng muhimi, mahallalarda tinch va xavfsiz muhitni ta'minlashga xizmat qilishi kutilmoqda.

**Bugungi kunda ko'plab uy-joylar va savdo obyektlari videokuzatuv kameralari bilan jihozlanganiga qaramay, jinoyatlarning ayrim turlari hamon dolzarbligicha qolmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalari qo'llanilayotgan bo'lsa-da, o'g'irliklar soni hali ham yuqori ekani tashvish uyg'otadi.**

Ma'lumotlarga ko'ra, o'tgan davr mobaynida 60 ta uy va savdo nuqtalaridan, 15 ta avtotransport vositalaridan o'g'irlik, 50 ta mobil telefon o'g'irligi, 11 ta velosiped o'g'irligi, 21 ta qalloblik qayd etilgan. Ushbu jinoyatlar-ning 60 dan ortig'i yoshlar va 18 yoshgacha bo'lgan shaxs-lar tomonidan sodir etilgan. Shuningdek, 53 ta holat ayol-lar, 7 tasi esa ishsiz fuqarolar hissasiga to'g'ri kelgan. Bu



esa jinoyatchilikning ijtimoiy sabablariga jiddiy e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi.

Axborot texnologiyalari orqali sodir etilayotgan jinoyatlar ham ortib bormoqda. Masalan, 35 ta huquqbuzarlik internet tarmoqlari orqali amalga oshirilgan. Shu bois fuqarolardan shaxsiy ma'lumotlari, bank kartasi raqami, PIN-kod yoki tasdiqlash kodlarini hech kimga oshkor etmaslik talab etiladi. Har qanday shubhali holatda IIBga murojaat qilish lozim.

Firibgarlik holatlari biroz kamaydi. Bu turdagi jinoyatlar asosan fuqarolarning ishonuvchanligi va soddaligi bilan bog'liq holda sodir etilmoqda. Ularning ayrimlari ta'lim muassasasiga kiritish yoki ishga joylashtirish va'dalari bilan, 12 tasi avtotransport xaridi, 5 tasi xorijda ishga jo'natish, 10 tasi kredit va uy-joy masalalari, yana biri tilla buyumlarni sotish va xarid qilish bilan bog'liq holda amalga oshirilgan. Shuningdek, 10 ta holat axborot texnologiyalari orqali sodir etilgan.

**«Mening inspektorim» mobil ilovasining joriy etilishi fuqarolarning profilaktika inspektori bilan onlayn muloqot qilish, foto, video yoki audio xabarlar yuborish imkoniyatini yaratadi. Ichki ishlar xodimlari esa planshetlar orqali murojaatlarni real vaqt rejimida qabul qilib, huquqbuzarliklarga tezkor**

**chora ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi.**

Prezidentimizning «Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo'nalishida yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori, eng avvalo, ijtimoiy profilaktika samaradorligini oshirishga qaratilgani bilan ahamiyatli. Unda oilaviy nizolarning oldini olish bo'yicha mutlaqo yangi yondashuv va mexanizmlar nazarda tutilgan. Ayniqsa, ayollar va yoshlar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklarga tezkor javob berish tizimini shakllantirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilab qo'yilgan.

Qarorda «ayollar jinoyatchiligi» va «yoshlar jinoyatchiligi»ning ildiz sabablarini ilmiy-amaliy jihatdan o'rganishga alohida e'tibor qaratilgan. Bu jarayon «ilmiy xulosa – amaliy tavsiya – aniq natija» tamoyili asosida tashkil etiladi. Ya'ni, muammo faqat qayd etilib qolmasdan, uning sabablari chuqur tahlil qilinadi va aniq yechimlar ishlab chiqiladi.

Shuningdek, qarorda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalanish nazarda tutilgan. Bu esa profilaktika ishlarini raqamli asosda tashkil etish, tahlil qilish va tezkor qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

**Oilaviy nizolarni barvaqt aniqlash va ularning og'ir oqibatlariga yo'l qo'ymaslik maqsadida «E-nizoli oila» modulini joriy etish rejalashtirilgan. U «E-ijtimoiy profilaktika» axborot tizimi nizoli va muammoli oilalarni muntazam monitoring qilish, tahlil qilish hamda ular bilan manzilli ishlash imkonini yaratadi.**

Qarorga muvofiq, jinoyatchilik darajasiga qarab 59 ta mahalla «qizil», «sariq» va «yashil» hududlarga ajratilgan. Namangan shahridagi 8 ta mahalla «qizil» hududga kiritilgan bo'lib, ular qatoriga «Obi hayot», «Chorsu», «Sharq tongi», «Baynalminal», «Dashtbog'» kabi mahallalar kiradi. Bu hududlardagi mahallalarga oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlar ham biriktirilib, muammolarni ilmiy tahlil qilish va samarali yechimlar ishlab chiqish yo'lga qo'yiladi. Jinoyatchilik holati eng og'ir bo'lgan mahallalar esa tuman hokimlari, IIB rahbarlari, prokurorlar va ularning o'rinbosarlariga shaxsan biriktiriladi.

Bu yondashuv og'ir hududlarni bosqichma-bosqich «yashil» hududlarga aylantirish imkonini yaratadi, aholi-ning huquqiy ongi va jamoat tartibiga e'tiborini kuchaytiradi.

**O'z muxbirimiz  
Jahongir TO'XTASINOV  
yozib oldi.**  
Namangan viloyati.





## Ayol va jamiyat

— Oilamizdagilarning tazyiq va zoʻravonliklaridan bezib ketdim. Sabr qilaverib charchadim. Endi ularning tahqirlashlariga chiday olmayman, kunda-kunora janjal. Menga yordam bering. Janjallar sabab sogʻligimni yoʻqotayapman...

Nurobod tumanining «Doʻstlik» mahallasida yashovchi notinch oila roʻyxatida turuvchi Nozima Rustamova (ism-sharifi oʻzgartirildi) 2 yildan beri qaynakalari va ovslari oʻrtasidagi oʻzaro kelishmovchilikdan aziyat chekib tuman IIB JXX HPB xotin-qizlar masalalari boʻyicha katta inspektori, katta leytenant Shahlo Izzatovadan najot istab keldi. Fuqaroning murojaati manzilli oʻrganilib, ushbu oilada kelgusida oila-turmush doirasida jinoyat sodir boʻlmasligi uchun himoya orderi rasmiylashtirib berildi. Shuningdek, xonadoniga kuzatuv kamerasi va tashvish tugmasi, yaʼni qoʻriqlash pulti oʻrnatildi.

Tumanda oilalar mustahkamligini taʼminlash, sharqona qadriyatlarni targʻib qilish borasida amaliy ishlar olib borilayotgan boʻlsa-da, soʻnggi yillarda xotin-qizlar jinoyatchiligi masalasi jiddiy eʼtiborni talab etyapti. Negaki, olib borilgan tezkor tadbirlar natijasida 8 nafar spirtli ichimlikka ruju qoʻygan va 3 nafar yengil tabiatli ayolning roʻyxatga tushgani jiddiy ogohlik boʻldi. Shu bois, ular bilan yakka tartibda profilaktik suhbatlar oʻtkazildi. Ushbu salbiy holatlarning sabablari oʻrganilib, oldini olish boʻyicha «Yoʻl xaritasi» ishlab chiqildi.

— Nurobod tumanida xotin-qizlar jinoyatchiligiga qarshi kurash faqatgina huquqni muhofaza qilish organlarining emas, balki barchamizning ishimiz. Xotin-qizlarni jinoyat sari yetaklaydigan yoʻl odatda toʻsatdan boshlanmaydi. U ishsizlik sabab paydo boʻladigan iqtisodiy tanglikdan, yetishmovchilik tu-



fatli oilaviy nizolardan hamda maʼnaviy boʻshliq va huquqiy bilimning yetishmasligidan kelib chiqadi. Bu borada mahalla yetiligi oʻzaro hamjihatlikda ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarni aniqlab, ularning muammolarini manzilli hal

etishga harakat qilishyapti. Kimningdir bandligi taʼminlansa, boshqasiga psixologik yordam koʻrsatilyapti va yana kimgadir huquqiy maslahat berilmoqda, — deydi tuman oila va xotin-qizlar boʻlimi boshligʻi Ziroat Sadinova.

Oʻrganishlarda tumanining «Sarikoʻl» mahallasida yashovchi fuqaro Gulchiroy Fayozovaga (ism-sharifi oʻzgartirilgan) turmush oʻrtogʻi muntazam ravishda tazyiq va zoʻravonlik oʻtkazib kelganligi aniqlandi. Unga himoya orderi rasmiylashtirilib, Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish viloyat hududiy markaziga joylashtirildi. Voyaga yetmagan ikki nafar farzandini sud qaroriga asosan onasiga olib berishga erishildi.

Mahallalarda xotin-qizlar bilan oʻtkazilayotgan uchrashuvlarda jinoyat oqibatlar haqida emas, balki unga yoʻl qoʻymaslik uchun nima qilish kerakligi, oldini olish choralari, ayol qadri va shaʼni, oiladagi oʻrni haqida gapirilayapti. Har bir ayol qalbiga «Siz onasiz, siz keraklisiz, siz qadrlisiz» degan fikrlarni singdirishga harakat qilinmoqda.

**Umida MAMADALIYEVA,**  
**oʻz muxbirimiz.**

*Samarqand viloyati.*

## Xizmatlarda

# HAMKORLIKDAGI TADBIRLAR



Xususan, joriy yilning yanvar oyi davomida fuqarolarining eski namunadagi biometrik pasportlarini identifikatsiya ID-kartalarga almashtirish boʻyicha ishlar davom ettirildi. Shuningdek, 27 ming nafardan ortiq fuqarolarning maʼlumotlari qabul qilinib, ularga ID-kartalar rasmiylashtirildi. Bundan tashqari, yashash guvohnomasi bilan istiqomat qilib kelayotgan 2 nafar fuqaroligi boʻlmagan shaxs Oʻzbekiston Respublikasi fuqarosi maqomiga ega boʻldi.

Jami 2239 nafar fuqaroning xorijga chiqish boʻyicha ariza-anke-talari koʻrib chiqilib, ularga chet elga chiqish biometrik pasporti

**Qoraqalpogʻiston Respublikasi IIV Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish boshqarmasi hamda uning joylardagi boʻlinmalari tomonidan fuqarolarga oʻz vaqtida tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish va egalariga topshirish, pasport-viza rejimiga amal qilinishini taʼminlash borasida qator ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.**

rasmiylashtirib berildi. Oʻtgan davr mobaynida 2100 nafardan ziyod chet el fuqarolari va fuqaroligi boʻlmagan shaxslar turgan joyi boʻyicha vaqtinchalik roʻyxatga qoʻyilib, 30 nafardan ortiq chet el fuqarolari va fuqaroligi boʻlmagan shaxslarning Oʻzbekiston Respublikasida boʻlishlari uchun viza muddatlari uzaytirilgan.

— Afsuski, xorijga chiqish davomida hujjatlariga beparvolik bilan munosabatda boʻladigan hamyurtlarimiz ham uchrab turadi. Shu yilning oʻtgan davri mobaynida xorijda yurgan paytlari fuqarolik pasportini yoʻqotgani, ushbu hujjatning amal qilish muddati oʻtganligi yoki yaroqsiz holga kelib qolganligi tufayli 117 nafar fuqaro vatanga qaytish guvohnomasi bilan yurtimizga qaytib kelgan, — deydi Qoraqalpogʻiston Respublikasi IIV Migratsiya va fuqarolikni rasmiy-



lashtirish boshqarmasi boshligʻi, podpolkovnik Shavkat Turayev.

Ayrim paytlari fuqarolar jismoniy imkoniyati cheklangani yoki boshqa uzrli sabablar tufayli tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish uchun boʻlimlarga kela olmasligi mumkin. Bunday paytlari soha xodimlari fuqaroning uyiga borib, maxsus mobil qurilma

yordamida hujjatlarni rasmiylashtirmoqda.

Hududda jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini taʼminlash, jinoyat hamda huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida mahalliy hokimiyatlar, fuqarolarning oʻzini-oʻzi boshqarish organlari, jamoatchilik vakillari hamda mutasaddi idoralar xodimlari bilan oʻzaro hamkorlikda «Pasport-viza» tadbirlari oʻtkazib kelinmoqda. Jumladan, hududda joylashgan mehmonxonalar, xostellar, uy mehmonxonalari ham-

da chet el korxonalari va qoʻshma korxonalarda oʻrganish ishlari yoʻlga qoʻyilgan. Buning natijasida mamlakatimizda boʻlish qoidalarini buzgan 24 nafar shaxs aniqlangan.

**Azamat PIRNIYAZOV,**  
**oʻz muxbirimiz.**

*Qoraqalpogʻiston Respublikasi.*





## Kasb fidoyisi

## OILALAR TINCH BO'LSIN DEB

Fidoyi insonlar zimmasiga olgan vazifani ado etish uchun bor kuch-g'ayratini ayamaydi. Ular vaqtidan, halovatidan kechadi, to maqsadiga erisha olguncha, ko'ngli joyiga tushmaydi, yana va yana harakat qilaveradi.

Shundaylar sirasiga Toshkent shahar Uchtepa tumani IIOFMB HPB XQMB katta inspektori, mayor Shahlo Abdulkarimova ham kiradi. Xotin-qizlar muammolarini aniqlash, tizimli ravishda hal etish va «Ayollar daftari»ni yuritish maqsadida tumandagi 60 ta mahallada ishchi guruhlar va tuman shtabi tashkil etildi. «Ayollar daftari»ni shakllantirishda shaffoflikni ta'minlash, muhtoj xotin-qizlarni e'tiborsiz qoldirmaslik, ularning muammolarini atroflicha o'rganish va hal etish asosiy vazifa etib belgilandi. Ishchi guruh a'zolari xonadonbay ishlash asosida, anketa-so'rovnomalar orqali aholi muammolarini to'liq aniqlashmoqda. Bu jarayonga mayor Shahlo Abdulkarimova bosh-qosh.



Lavhamiz qahramoni ichki ishlar organlari tizimida 1994-yildan buyon samarali faoliyat yuritadi. 1999-yildan esa Toshkent shahar Uchtepa tumanida xotin-qizlar manfaatini himoya qilish yo'lida jon kuydiryapti.

– O'tgan yil davomida xotin-qizlar tomonidan 53 ta jinoyat sodir etilgan, ularning asosiy qismi firibgarlik jinoyatlaridir, – deydi mayor Shahlo Abdulkarimova. – Jinoyat sodir etgan ayollarning 31 nafari ishsiz.

Ko'ngilsiz holatlarning barvaqt oldini olish maqsadida mahalla raisi, xotin-qizlar faoli, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektori hamkorlikda ish olib bormoqda. Natijada ayollarga huquqiy, psixologik, tibbiy, ma'naviy va moddiy yordamlar ko'rsatilmoqda.

– Ayrim oilalarda ota-ona dunyodan o'tgach, farzandlar orasida meros talashish, yangi kelinni uy ro'yxatidan o'tkazmaslik, molparastlik, dabdababozlik va boshqa sabablar oilalarni parokandalikka olib keladi, – deydi Shahlo Abdulkarimova. – Bunday holatlarga chek qo'yish uchun birlashib harakat qilishimiz kerak.

Ma'lumotlarga ko'ra, o'tgan yili tumanda xotin-qizlar inspektorlari tomonidan 593 ta himoya orderi rasmiylashtirilgan. Mahallalarda «Turmush» tadbirlari va jinoyat muhokamalari o'tkazilgan. 33 nafar ayol Toshkent shahar Rehabilitatsiya va moslashtirish markaziga, 11 nafar spirtli ichimlikka ruju qo'ygan shaxs Narkologiya markaziga, 17 nafar shaxs esa shifoxonaga joylashtirilgan.

Tumanda 395 nafar profilaktik hisobdagi, 33 nafar probatsiya bo'limi hisobida turuvchi fuqarolar bilan «Ish bor – hunar bor» mavzusida tadbirlar o'tkazildi. Bundan tashqari, tungi «Oriyat» tadbirlari doirasida axloq-odobi yomon ayollar va huquqbuzarlarga doimiy ro'yxatdagi manzillariga taqdimnomalar yuborildi. 214 ta nizoli oila ro'yxatga olindi, 10 nafar ayol uyiga qaytarildi, 2 oilaning mol-mulk bilan bog'liq masalalari hal qilindi, 67 nafar oila ajrimdan saqlab qolindi, 45 oilaning nizosi bartaraf etildi.

Hayotda mayor Shahlo Abdulkarimova «O'zingga ishon, o'zgani hurmat qil!» shiori bilan yashaydi. Lavhamiz qahramoni kam so'zlaydi, ko'p harakat qiladi. Uning fidoyilarcha mehnati tufayli jamiyatda ayollarning manfaatini himoya qilyapti, oila osoyishtaligi va farzand baxti uchun xizmat qilmoqda.

U ota kasbini davom ettirib, el duosini olayotganidan faxrlanadi. Iqtisodiyot universitetining 5-bosqich talabasi bo'lgan o'g'li Firdavs ham bobosi va onasi izidan borishni maqsad qilgan.

**Adolat FAYZIYEVA,**  
o'z muxbirimiz.

*Toshkent shahri.*

## Qaror va ijro

## «BOG'OBOD»DA XAVFSIZ MUHIT YARATILADI

**Davlatimiz rahbarining 2026-yil 5-yanvardagi «Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo'nalishida yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori kriminogen vaziyat og'ir bo'lgan mahallalarda xavfsiz muhitni yaratishda muhim dasturiy hujjat bo'lib xizmat qilmoqda. Qaror ijrosini ta'minlash borasida Qarshi tumanida ham tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.**

Tumandagi «Bog'obod» mahalla fuqarolar yig'ini bir necha yildan beri «qizil» toifada. Shu bois mahallaga viloyat IIB boshlig'ining o'rinbosari birlashtirilib, qo'shimcha kuch va vositalar jalb qilindi. Qolaversa, jinoyatchilikning barvaqt oldini olish, kriminogen vaziyatni sog'lomlashtirish va aholi xavfsizligini ta'minlash maqsadida mahallada keng qamrovli «Tozalash» profilaktik tadbiri tashkil etildi. Tadbir doirasida xodimlar va jamoatchilik vakillaridan iborat funksional guruhlar tomonidan turli yo'nalishlarda manzilli ishlar olib borildi. Jumladan, hududdagi xonadonlar, obyektlar xatlovdan o'tkazilib, anketa so'rovnomalari to'ldirildi. Profilaktik hisobda turgan bir nafar shaxs bilan suhbat o'tkazildi. Notinch oilalarning yashash sharoiti, muammolari o'rganilib, tegishli choralar ko'rilishi belgilandi.

Mahalla hududida, xususan, ta'lim muassasalari atrofida piyodalar xavfsizligiga alohida e'tibor qaratildi. 40-, 69- va 28-sonli maktablar oldida piyodalar o'tish joylari yangilanib, yotiq yo'l chiziqlari chizildi. Tegishli yo'l belgilari o'rnatildi. Ko'chma piyodalar svetofori ta'mirlanib, ishchi holatga keltirildi.

Yo'l-transport hodisalarining oldini olish va yo'l harakati qoidalariga rioya etilishini ta'minlash maq-

sadida o'tkazilgan reydlarda qoidabuzarliklar aniqlanib, ma'muriy choralar ko'rildi. Qidiruvda bo'lgan bitta avtotransport vositasi hamda qoidabuzarlikka aloqador bir nechta avtomashinalar vaqtinchalik jarima maydoniga joylashtirildi. Shuningdek, viloyat IIB JXX JTSB PPX batalyoni xodimlari tomonidan o'tkazilgan profilaktik tadbirlarda qator huquqbuzarliklarning oldi olinib, aybdorlar ma'muriy javobgarlikka tortildi.

Ayni paytda mahallada ijtimoiy muammolarni o'rganish va hal qilish, aholi bandligini ta'minlash, xotin-qizlar, kambag'al va ehtiyojmand oilalarni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, sog'liqni saqlash sohasida profilaktik tadbirlarni kuchaytirish borasida tizimli tarzda amaliy ishlar olib borilmoqda. Bu sa'y-harakatlar «Bog'obod» mahalla fuqarolar yig'inida xavfsiz muhitni shakllantirishda o'zining ijobiy natijasini berishi shubhasiz.

**Iroda RASULOVA,**  
podpolkovnik.

*Qashqadaryo viloyati.*






Tuman IIBda

# PUXTA REJA VA MAS'ULIYAT SAMARASI

Jinoyatchilikning oldini olish masalasi faqat huquqni muhofaza qiluvchi idoralar zimmasidagi vazifa emas, balki butun jamiyatning umumiy mas'uliyati sifatida qaralayotgan hozirgi kunda Ulug'nor tumanida olib borilayotgan ishlar alohida e'tiborga loyiq. Bu yerda profilaktika bir kunlik tadbir yoki mavsumiy nazorat bilan cheklanib qolmagan, balki ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy va tashkiliy omillarni qamrab olgan yaxlit tizimga aylangan.



Ulug'nor tumani IIB boshlig'ining o'rinbosari – jamoat xavfsizligi xizmati boshlig'i, mayor Diyorbek Gaziyeu.

Tumandagi 23 ta mahallaning 14 tasi «yashil», 9 tasi «sariq» toifaga kiritilgan. Eng muhimi, hududda birorta ham «qizil» toifadagi mahalla mavjud emas. Bu jinoyatchilikka qarshi kurashda to'g'ri yo'l tanlanishining amaliy isbotidir.

Jinoyatchilikning asosiy sabablari-dan biri sifatida ishsizlik va ijtimoiy beqarorlik qaraladi. Shu nuqtai nazardan, Ulug'nor tumanida aholini doimiy daromad manbayi bilan ta'minlash masalasiga ustuvor vazifa sifatida yondashilmoqda. Xususan, 2025-yilda salkam 2 ming nafar



HPB ma'muriy amaliyot bo'yicha katta inspektori, mayor Ma'ruffjon Musayev va tashkiliy-tahliliy guruhi katta inspektori, katta leytenant Bekzodbek Hasanov.



Navbatchilik qismi katta navbatchisi, mayor Dilshodbek Do'smatov navbatchi yordamchisi, safdor Nuriddin Sultonov bilan.

fuqaroning bandligi ta'minlangani nafaqat iqtisodiy ko'rsatkich, balki jinoyatchilik profilaktikasining muhim ijtimoiy poydevori hisoblanadi.

Yoshlar bilan ishlash masalasi esa alohida tahlil talab qiladi. Tumanda 15 ming nafardan ziyod yoshlar istiqomat qiladi. Ana shu katta ijtimoiy qatlam bilan ishlashda formal yon-



HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori, leytenant Malikabonu Olimova va ta'minlash bo'linmasi haydovchisi, safdor Ziyodulla Sobirov.

dashuv emas, balki har bir yoshning qiziqishi, qobiliyati va kelajak rejalarini inobatga olgan holda harakat qilinmoqda. Mahalla yettiligi bilan

holat xotirjamlikka berilmaslikni talab etadi. Shu bois, har bir mahallada nazorat choralari yanada kuchaytirilgan. Jamoat tartibini ta'minlashda kuzatuv kameralaridan samarali foydalanish, jamoatchilik vakillarining faol ishtirokini ta'minlash amaliyoti keng qo'llanilmoqda. Ayniqsa, kriminogen vaziyati og'ir bo'lgan mahallalarda targ'ibot va tushuntirish ishlariga alohida e'tibor qaratilayotgani ijobiy natijalar bermoqda. Bu borada «Fazogir», «Obod», «Bo'ston» kabi mahallalar misolida vaziyatning tubdan o'zgarganini ko'rish mumkin. Ilgari xavotirli deb baholangan hududlarda bugun osoyishtalik ta'minlanib, aholining huquqiy ongi va faolligi oshgan. Bu jarayonda profilaktika inspektorlari – podpolkovnik Ummatali Ortiqov, katta leytenantlar Boburmirzo Keldiboyev hamda Sarvarbek Qoraboyevlarning xizmatlari katta bo'lmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Ulug'nor tumanida jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar shunchaki nazorat yoki hisobot uchun emas, balki inson manfaatini, jamiyat xotirjamligini ta'minlashga qaratilgan uzluksiz jarayondir. Ana shu tizimli yondashuv va jamoaviy mas'uliyat tufayli tumanda tinchlik va osoyishtalik barqaror saqlanmoqda.

**Saminjon HUSANZODA,**  
o'z muxbirimiz.

Andijon viloyati.

hamkorlikda yoshlarni ta'limga yo'naltirish, kasbga o'rgatish va bandlik bo'yicha tizimli ishlar yo'lga qo'yilgan. Ana shu kompleks yondashuv o'zining aniq statistik natijalarini ham bermoqda. Jumladan, 2025-yilda tumanda sodir etilgan umumiy jinoyatlar soni 2024-yilga nisbatan 18,7 foizga kamaygan. Bu raqamlar ortida esa mahalla, profilaktika inspektori, jamoatchilik va davlat tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlik, o'zaro ishonch va mas'uliyat mujassam.

Garchi tumanda «qizil» toifadagi mahallalar mavjud bo'lmasa-da, bu





## Jinoyatchilikdan xoli hudud

## BARQARORLIK KAFOLATI

Jamiyatda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, mahallalarni jinoyatchilikdan xoli hududga aylantirish bugun dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu borada mahallada faoliyat olib borayotgan profilaktika inspektorlarining sa'y-harakatlari natijasida qator ijobiy yutuqlarga erishilmoqda. Buni Namangan tumanidagi mahallalar misolida yaqqol ko'rish mumkin.

Ayni paytda tumanning «Yashnaobod» mahallasida 3 ming 80 nafardan ortiq aholi istiqomat qiladi. Aholining kundalik tashvishlariga sherik bo'lish, muammolariga yechim topish, tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashda mahalla yetiligining o'zaro hamkorligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ana shu hamjihatlik samarasi o'laroq, 2025-yilda 123 nafar yosh va xotin-qizlar doimiy ish o'rni bilan ta'minlandi. Shuningdek, 27 nafar tashabbuskor fuqaroning g'oyalari loyihalarga aylantirilib, imtiyozli kreditlar asosida tadbirkorlik va maishiy xizmat yo'nalishlarida o'z faoliyatini boshlashiga ko'maklashildi.

Bu jarayonda yana bir muhim jihat – profilaktika inspektori, leytenant Jamshidbek Jo'rayevning aholi bilan birgalikda ish olib borib, mahallani huquqbuzarlik va jinoyat-

chilikdan xoli hududga aylantirish yo'lida sidqidildan xizmat qilayotganidir.

– Men xizmat olib borayotgan hududga yaqindan ko'chib kelgan va migratsiyadan qaytgan 375 nafar fuqaroning bandligini ta'minlash masalasi o'rganilib, ular bo'yicha hokim yordamchisiga tegishli xulosalar taqdim etdim. Natijada mazkur fuqarolarning aksariyati kredit va subsidiyalari asosida ish bilan ta'minlandi, – deydi profilaktika inspektori.

Ana shu tizimli ishlar natijasida «Yashnaobod» mahallasi «yashil hudud» sifatida e'tirof etildi. Aytish joizki, Jamshidbek Jo'rayev yosh bo'lishiga qaramay, o'z kasbiga sadoqat bilan yondashib, xizmat qi-

layotgan mahallasida jinoyatchilikni barvaqt aniqlash va oldini olishga alohida e'tibor qaratmoqda.

Mahallada aholi bilan doimiy muloqot olib borilishi, profilaktik tadbirlarning izchil tashkil etilishi bejiz ketmadi. Xususan, yo'l-transport hodisalarining oldini olish va harakat xavfsizligini ta'minlash maqsadida ko'chalarga sun'iy to'siqlar o'rnatildi, xavfsizlikni kuchaytirish uchun videokuzatuv kameralari joylashtirilib, ular tun-u kun nazoratga olindi. Bu ishlar mahalla faollari

va jamoatchilik bilan hamkorlikda amalga oshirildi.

Umuman olganda, profilaktika inspektorlarining mahallalarda va oilalarda ijtimoiy-ma'naviy muhitga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi holatlarning oldini olishga qaratilgan faoliyati jamiyatimizda tinchlik, osoyishtalik va jamoat xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

**Jahongir TO'XTASINOV,**  
o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.



## Jazoni ijro etish tizimida

Joriy yilning o'tgan bir oyi davomida IIV

huzuridagi JIED hamda uning tasarrufidagi muassasalarga jismoniy va yuridik shaxslardan jami 911 ta murojaat kelib tushgan. Olib borilgan tizimli chora-tadbirlar, joylarda tashkil etilgan sayyor qabullar va targ'ibot ishlari natijasida murojaatlar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,7 foizga, takroriy murojaatlar esa 44 foizga kamaygan.

Murojaatlarning aksariyati qanoatlantirilgan bo'lsa, ayrimlari yuzasidan huquqiy tushuntirish va maslahatlar berildi. Bu esa fuqarolarning huquqiy ongini oshirish va asossiz murojaatlarning oldini olishda muhim omil bo'lmoqda.

Asosan mahkumlarni boshqa muassasaga o'tkazish, afv etish, ularning sog'lig'i, moddiy va ijtimoiy ta'minoti, manzil koloniyalarida kiyim-kechak va oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, ishlab chiqarish korxonalarida yaratilgan shart-sharoitlar, jazo turini yengilrog'i bilan almashtirish, muddatidan ilgari shartli ozod qilish kabi masalalar bo'yicha muroja-

atlar qilingan. Shuningdek, pul o'tkazmalari, mahkumlarning ish haqini o'z vaqtida olishi, avvalgi muassasada qolib ketgan ish haqining, oila a'zolari tomonidan yuborilgan mablag'larning hisob raqamiga o'z vaqtida tushishi bilan bog'liq murojaatlar ham atroflicha o'rganilib, ijobiy hal etilmoqda.

Advokatlar tomonidan mahkumlarga nisbatan tavsifnoma olish, uzoq va qisqa muddatli uchrashuvlar, qonuniy nikohni rasmiylashtirish

yoki ajrimga rozilik olish, notarial harakatlarni amalga oshirish kabi masalalar yuzasidan ham amaliy ko'mak ko'rsatilmoqda. Ichki ishlar organlari vakolatiga kirmaydigan masalalar bo'yicha esa tegishli idoralarga murojaat qilish tartibi tushuntirilyapti. Departamentning Murojaatlar bilan ishlash guruhi faoliyati insonparvarlik tamoyillari asosida yo'lga qo'yilganini quyidagi misollar ham tasdiqlaydi.

Bir ayol yagona o'g'li jazo muddatini yashash

manzilidan uzoq viloyatda o'tayotgani, yoshi keksaligi bois uchrashuvlarga borishda qiynalayotgani yuzasidan murojaat qildi. Murojaat atroflicha o'rganildi. Mahkumning xulq-atvori ijobiy ekani, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda faol ishtirok etayotgani, qonunchilikka ko'ra uni yashash hududiga yaqin muassasaga o'tkazishga to'siq yo'qligi aniqlandi. Natijada murojaat ijobiy hal etilib, onaxon Departament rahbariyatiga minnatdorlik bildirdi.

Yana bir fuqaro ozodlikka chiqqanidan so'ng qonuniy bir martalik moddiy yordamni olishda muammoga duch kelganini bildirdi. O'rganishlar jarayonida uning shaxsini tasdiqlovchi hujjati almashgani sabab ma'lumotlar bazasida noaniqliklar yuzaga kelgani ma'lum bo'ldi. Muammo bartaraf etildi. Murojaatchi minnatdorlik bildirib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasiga maktub yo'lladi.

Murojaatlar bilan ishlash inson manfaatlarini ta'minlash, qonuniylik va adolat tamoyillarini hayotga tatbiq etishda muhim o'rin tutadi. Eng muhimi, har bir murojaat ortida inson taqdiri turgani chuqur anglangan holda, har bir masalaga mas'uliyat va insoniylik bilan yondashilayotgani. Bu esa jazoni ijro etish tizimida islohotlar izchil davom etayotganini va inson huquqlari ustuvor tamoyil sifatida ta'minlanayotganini ko'rsatadi.

**Sadriddin XAYRULLAYEV,**  
katta leytenant.



## MUHIM TAMOYILLARDAN BIRI

*Davlat organlari faoliyatining ochiqqligi, murojaatlarga e'tibor va xalq bilan muloqot darajasi jamiyat taraqqiyotining muhim mezonlaridan biridir. Ayniqsa, jazoni ijro etish tizimida murojaatlar bilan ishlash masalasi inson huquq va manfaatlarini ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etadi.*



**SIZ KUTGAN UCHRASHUV**

# Orif SULTONOV:

## JIDDIY ROLLAR O'YNOLMAYMAN

**«Tog'lik kuyov» filmidagi jabrdiyda oshiq yodingizdami? Uni yaxshi ko'rgan qizi Jamila ham «pakana» deb kamsitadi. Biroq u baribir sevgisi uchun kurashaveradi. Bugungi suhbatdoshimiz aynan o'sha rolni maromiga yetkazib ijro qilgan komik aktyor Orif Sultonov bo'ldi.**

**– Sizni ba'zilar toshkentlik, ayrimlar esa Sirdaryodan de-yishadi. Oilangiz haqida ikki og'iz...**

– Otam rahmatli Odiljon Sultonov mohir oshpaz edi. Onam Mavludaxon Sultonova esa dalada mehnat qilib, biz farzandlarini tarbiyaladi. Toshkentlik deyishlarida mantiqan jon bor. Chunki 1971-yil 7-oktabrda Toshkentda dunyoga kelganman-da. Ammo bu omil 1970–1972-yillarda oilamizning vaqtincha poytaxtda yashaganligi hisobiga. Aslida Andijon viloyati Paxtaobod tumanidagi Eski-qo'rg'on qishlog'ida katta bo'lganman. 20 sotix yerimiz bo'lardi. Unga pomidor, makka, sholi ekardik. Uyda 4–5 ta mol, 8–10 ta qo'y bo'lardi. Kundalik yumushlardan ortib, o'qishniyam joyiga qo'yishga intilardim. Garchand, tug'ilgan joyim Toshkent bo'lsa-da, ota-onam va o'zim Andijonga bog'langanmiz. Sirdaryo – bu muxlislarning bir taxminidir, balki...

**– San'at sohasi vakillari yo'q oilada ulg'ayibsiz, ushbu yo'nalishga kirishga sizni aynan nima undadi?**

– Onam. Umrlari uzoq bo'lsin, duogo'yim, hoji onam bolaligimdan adabiyotga, san'atga qiziqishimni ko'rib, san'at sohasini tanlashimga turtki bo'lgan. Har tomonlama qo'llab-quvvatlagan. 1989-yilda o'rta maktabni kumush medal bilan tamomlagach, Toshkent davlat teatr va rassomlik insti-

tutiga hujjat topshirdim. Bo'yim kichkinaligi bois, aktyorlik bo'limiga olishmagan. Lekin bilimim, dunyoqarashimni yuqori baholashib hujjatlarimni rejissyorlik bo'limiga qabul qilishgan. Rejissurada esa ham aktyorlik, ham rejissyorlikka o'qitishardi. Bu esa menga ikki hissa qo'l kelgan. 1994-yilda ushbu institutni muvaffaqiyatli bitirdim.

**– Ilk faoliyatingiz sirkda boshlangani rostmi?**

– Ha. Rahmatli kursdoshim Shuhrat Abdujabborov hamda «Qalpoq»dagi Rahmonali Suro-povlar bilan birga qiziqchilar jamoasini shakllantirish maqsadida dastlab Toshkent davlat sirkiga ishga kirganmiz. 1995–2001-yil-gacha o'sha yerda ishladik. Bu faoliyatimiz ibtidosi edi. Charli Chaplin uslubida, qisqa komedik rollar o'ynaganmiz. Sirk-da bizni juda iliq kutib olishgan. Rollarimiz, original chiqishlarimiz e'tirof etila boshlandi. Hatto 2001-yil Xitoydagi butunjahon qiziqchilar festivalida laureat bo'lib, kubok bilan qaytganmiz. Kino olamiga kirib kelishimga kelsak, O'zbekiston televideniyesida televizion miniatyuralar teatriga sirkdagi ishimdan bo'shamagan holda aktyor sifatida qatnashib yurganim sabab bo'ldi.



Oynai jahondagi rollarim orqali asta-sekin zangori ekranni ham zabt eta boshladik. Bir kuni O'zbekiston xalq shoiri Xurshid Davron televideniye mas'uli sifatida ko'rsatuv ochish taklifini berdi. Shu sabab do'stim, hamkasbim Rahmonali Suro-pov ikkalamiz «Qalpoq» hajviy ko'rsatuvini ochganmiz.

«Qalpoq» nomini o'zim qo'yganman. Shu tariqa birin-ketin rollar ijro qilib keta-verganmiz. Quvonarlisi, «Qalpoq» hamon yashamoqda.

**– Jiddiy obrazdagi rollar ham o'ynaganmisiz?**

– Yaxshi savol. O'ylab, javob beradigan bo'lsam, hayotim davomida hech ham jiddiy rol o'ynamagan ekanman. Faqat komedik rollarni berishgan. Balki yuzim mos tushishi boisdur. To'g'risi, yo'nalishim komediyaga ixtisoslashgani bois o'zim ham jiddiy obrazlarni o'ynolmayman. Menimcha, bundan bu yog'iga ham tavakkal qilmasam kerak. Men Rouen Atkinson (Mister Bin) ning muxlisiman. Bu aktyor rollari meni hayratga soladi, ta'sirlantiradi. Kelajakda aynan uning yo'nalishida film yoki serial olish niyatim bor. Rollarimni sidqidildan ijro etish bilan birga professionallikka intilaman. Odamlar mazza qilib dam olishini istayman. Va o'zim shundan rohatlanaman.

**– «Tog'lik kuyov» filmiga sizni kim taklif qilgan?**

– «Tog'lik kuyov» filmi hozircha eng katta rolim. Televizion miniatyurada ishlab yurgan kezlarimda film bosh rejissyori, elimiz suygan aktyor, rahmatli Mashrab Kimsanov kastingga taklif qilgan. Film ssenariysi, saundtrekiga yozilgan she'r muallifi rahmatli shoir Xayrullo Ergashev bo'ladi. «Mehr qo'yganim qolur» nomli saundtrekni Hamza Abdullayev mahorat bilan ijro etgan. Kastingdan o'tganimdan keyin 1999-yil aprelda tasvirga olish jarayonlari boshlanib, avgust oyida yakunlangan. O'sha yil noyabr oyida esa premyera qilganmiz. Keyinchalik «Dev bilan pakana» filmi, «Qaytar dunyo» seriali, «Doka ro'mol qurishi» teleseriali, Iskandar Hamroqulov bilan «Ajabxanda» turkum ko'rsatuv hamda «Qalpoq»da ko'plab rollar o'ynadim. Lekin «Tog'lik kuyov» orqali kaminani butun O'zbekiston tanidi desam, mubolag'a bo'lmaydi. Filmning budjeti nochorligi bois liboslarga o'zimizdan edi. O'sha paytlar yangi kuyov edim. Kuyovlik sarpolarimni filmida ham kiyganman. Meni suvga otganda o'zimga emas, yangi kostyumshimimga achinganman. Qisqasi suvga otish, daraxtga ilib qo'yish sahnalari bitta dublning o'zidayoq olingan. Aslida jarayon murakkabligi bois bittada olish qiyin edi. Gul-lar bozorida oyog'imni bosib olish sahnasi esa haqiqiy holat bo'lgan. Naq 150 kilolik ayol oyog'imni bosgandi. Ishonasizmi, bir hafta zirqirab og'rib yurgan.

**– Tinchlik – bebaho ne'mat. Uni asrab-avaylashda ichki ishlar organlari xodimlarining salmoqli hissasi bor. Yaqinlaringiz va qarindoshlaringiz orasida shu sohada xizmat qilayotganlar bormi?**

– Xizmat qilayotganlar yo'q. Ammo bir paytlar shu sohada ishlagan yaqinlarim bor. Xususan, amakim mayor unvonida pensiyaga chiqqan, turmush o'rtog'imning ikki nafar akasi ham ichki ishlar organlarida xizmat qilgan. Ular bilan ko'p hamsuhbat bo'lganman. Sohaning mashaqqati va mas'uliyatini yaxshi anglayman. Ishi og'ir, ba'zan kecha-yu kunduz xizmatda bo'lishadi. Ilohim, kam bo'lishmasin. Farzandlari rohatini ko'rishsin. Yurtimiz tinch bo'lsin.

**– Mazmunli suhbat uchun tashakkur.**

**Katta serjant Abror POYONOV suhbatlashdi.**





## Xavfsiz turizm

## SAYYOHLAR POSBONI

**Shonli ajdodlari ishini munosib ravishda davom ettirayotgan yoshlarimizni ko'rib ko'zimiz quvonadi. Ular har bir ishda maqtansa arzigulik yutuqlarga erishyapti, o'z bilimi va xizmati bilan mamlakatimiz rivojiga samarali hissa qo'shishyapti. Ana shunday osoyishtalik posbonlaridan biri kapitan Sunnat Ergashevdir.**

Oziq-ovqat va yengil sanoat texnologiyalari institutida o'qigan S. Ergashev bir muddat Galaosiy qurilish va transport kasb-hunar kollejida o'qituvchilik qildi. 2015-yilda viloyat IIB PPX va JTSBga qarashli Patrul-post batalyoni safdor xodimi lavozimida xizmat faoliyatini boshladi. Yaxshilarga ergashib, bugun o'z kasbining bilimdoni, mahoratli xodimga aylandi.

Hozirgi kunda viloyat IIB XTTB JXB jamoat tartibini saqlash guruhi katta inspektori lavozimida xizmat qilyapti. Kishi o'z kasbiga mehr qo'ysa, qiyinchiliklarni yengib o'tadi, mehnatidan zavq oladi. Uning xizmati shirin so'zlik va xushmuomalalikni taqozo etadi. Chunki u asosan sayyohlar bilan muloqot qiladi.

Hindistondan kelib tahsil olayotgan talabalar kapitan Sunnat Ergashevga murojaat qilib, ularning biri ehtiyotsizligi tufayli taksi avtomashinasida uyali telefonini qoldirib ketganini aytib, uni topishda amaliy yordam berishini so'rashdi. Sunnat mazkur murojaat asosida tezkor-surishtiruv ishlarini olib boradi va ko'p o'tmay taksi haydovchisini aniqlab, uyali telefon

apparati egasiga topshiradi. Xorijlik talabalar ko'rsatilgan bunday beg'araz yordam uchun Sunnat Ergashevga samimiy minnatdorlik bildiradi.

– Bunday holatlar tez-tez kuza-tilmoqda, – deydi kapitan S. Ergashev. – Mayli, ehtiyotsizlik qilib qoldirishdi, deylik. Biroq ayrimlari oradan ancha vaqt o'tgach, biror narsasini qoldirib ketganini aytib, bizni shoshirib qo'yishadi. Shunday holatlarda bizga viloyat IIV Tezkor boshqaruv markaziga qarashli «Xavfsiz shahar» tizimining yagona apparat-dasturiy platformasiga integratsiya qilingan kameralari asqatyapti.

Lavhamiz qahramonining aytishicha, o'tgan yil noyabr oyi oxirida ham xuddi shunday holat qayd qilingan ekan. Buxoro shahrida joylashgan «Mercury Bukhara Old Town» mehmonxonasidan qo'ng'iroq bo'libdi. Borishsa, italiyalik sayyohlar «Buxoro» temiryo'l vokzalidan qaytishda qo'l telefonini taksida unutib qoldirishgan. Bunga ham ikki kun bo'lganini va shu vaqtga qadar hech kimga ma'lum qilishmaganini ta'kidlashibdi. Ular avtomashina rangi

va rusumini bildirishgan, xolos. Kapitan S. Ergashev vaqtini boy bermasdan zudlik bilan Situatsion markazga borgan va mehmonxona yaqinidagi kameralardan ikki kun oldingi tasvirni ko'rib, avtomashinani aniqladi. So'ng yo'l-patrul xizmati xodimlari bilan hamkorlikda haydovchini qidirib topishdi va telefon apparati sayyohga qaytarildi.

Kapitan Sunnat Ergashev o'tgan yil davomida 1322 marotaba mahalliy hamda xorijiy sayyohlarga amaliy yordam ko'rsatgan. Shuningdek, Buxoro shahrining tarixiy qismida joylashgan madaniy meros obyektlarida mavjud muammolarni o'rganib, mutasaddi tashkilotlarga uchradan taklif va taqdimnomalar kiritdi. Litsenziyasiz va noqonuniy faoliyat bilan shug'ullanib kelayotgan mehmonxonalar bo'yicha o'tkazilgan tezkor tadbirlarda,

ommaviy hamda targ'ibot ishlarida ham faol ishtirok etmoqda. Shunday tadbirlar davomida mehmonlarni qabul qilish tartibini buzgan bir nafar mehmonxona egasini aniqlab, unga qonuniy chora ko'rinishini ta'minladi.

**Mirzoqul AHADOV,**  
o'z muxbirimiz.

*Buxoro viloyati.*



## Yangi O'zbekiston fuqarolari

## «SHUKR, ORZULARIM USHALDI»

**Dunyoda shunday taqdirilar borki, ular turli sabablarga ko'ra fuqaroligi bo'lmagan holda yashashga majbur bo'lgan. Ana shunday insonlar taqdiriga befarq bo'lmagan yangi O'zbekiston rahbariyati insonparvarlik va adolat tamoyillariga tayanib, ularni fuqarolikka qabul qilib yangi hayot eshiklarini ochdi.**

Yaqinda Samarqand viloyatida «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi Qonunga muvofiq 14 nafar shaxs O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilindi. Urgut tumanining «Beshkon» mahallasida yashovchi Xo'jamqul Sharipov 62 yoshda. Tojikiston Respublikasida tug'ilgan. 1993-yilda samarqandlik Shohsanam Mirzaeva bilan turmush qurib, O'zbekiston Respublikasiga yashash uchun kelgan. 33 yildan buyon fuqarolik olish ilinjida yashadi.

– Shukr, orzularim ushaldi. Chunki, fuqarolik huquq va majburiyatlar majmui, insonning jamiyatda o'z o'rnini, o'z ovozi va o'z kelajagiga bo'lgan ishonchidir. Men ham endi shu jamiyatning bir a'zosiman,



yangi O'zbekistonning yangi fuqarosiman, – deydi u quvonib.

Darhaqiqat, inson uchun Vatan va fuqarolik tushunchalari beqiyos ahamiyatga ega. Fuqaroligi bo'lmagan shaxslar orasida turli millat vakillari, turli taqdir

sohiblari bor. Kimdir bolaligidanoq sarsonlikda o'sgan, kimdir esa hayot sinovlari sabab o'z yurtidan uzoqlashgan edi.

– Men bu kunni 29 yil kutdim. Shu yillar davomida qarindoshlarim to'y qilishsa borolmadim, yaqinlarimdan

kimdir vafot etsa alamdanda ko'z yoshlarimni ichimga yutdim. Meni ham bir kun tan olishar, deb umid bilan yashadim. Bugun sevindim, chunki orzularim ushaldi. Menga O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi berildi, – deydi ko'zlaridan

sevinch yoshlari qalqib turgan Nazira Bahriddinova. – Men uchun fuqarolik – yashayotgan Vatanimga daxldorlik, ertangi kunimga ishonch. Davlat tomonidan bizga berilgan bu e'tibor yangi O'zbekistonda inson qadri ulug' ekanini yana bir bor isbotladi.

Qo'llarida fuqarolik pasporti tutgan insonlarning ko'zlarida yosh, dilida esa shukronalik aks etdi. Ular endi o'zini begona emas, balki Vatanning bir bo'lagi sifatida his etishdi.

Fuqarolik pasportiga ega bo'lgan shaxslar endi ta'lim olish, mehnat qilish, tibbiy xizmatlardan foydalanish hamda ijtimoiy himoya tizimiga kirish huquqlariga ega bo'ldilar. Endi ularning turmush tarzi, yashash sharoiti yaxshilanadi. Qalblariga nur, hayotlariga esa yangi ma'no kiradi.

**Umida MAMADALIYEVA,**  
o'z muxbirimiz.

*Samarqand viloyati.*





O'qishni tavsiya etaman

# YAXSHILIK URUG'LARI

Tug'ilgan kunim munosabati bilan hamkasblarim menga Shukur Xolmirzayevning «Bir guzar odamlari» kitobini sovg'a qilishdi. O'quvchilik kezzarimdan adibning hikoyalarini sevib mutolaa qilardim. Ayniqsa, talabalik kezzarim uning ijodi muhibiga aylangandim.

To'plamni o'qib chiqqach, undan olgan taassurotlarimni gazetxonlar bilan o'rtoqlashishga o'zimda ehtiyoj sezdim.

«Sog'inch» hikoyasi qahramoni Azim asli qishloqlik. Oliygo'hn bitirgach, shaharda yashab qoladi. Har yili mehnat ta'tiliga chiqqach, qadrdon qishlog'iga keladi. Har gal sobiq sinfdoshi Ismat bilan ovga chiqishadi. Bir yili tashvishlar bilan bo'lib, qishlog'iga borolmaydi. Shunda Ismat u bilan qo'ng'iroqlashib, nega kelmaganini surishtirib:

– Azimjon!.. Sizni... sog'indim! Eshityapsizmi? – deydi.

Azimjon o'rtog'i bilan o'rtalari da kechgan so'zlashuvni xotiniga gapirib bergach, ikkisi Ismatning soddaligidan kulishadi. Shu kecha uxlash oldidan chekish uchun hovliga chiqqanida, dimog'iga ko'klam nafasi uriladi. Shunda qishlog'ini, tog'-u toshlarni, ovni, boychechakni, qadrdon jo'rasini qattiq sog'inganini ich-ichidan his etib, yig'lagisi keladi...

«Yovvoyi gul» hikoyasi qahramoni Vosit esa shahar hayotiga ko'ni-

ka olmay, oxiri tog' yonbag'ridagi qishlog'iga qaytib ketadi. «Jo'raboshi» hikoyasida Habibulla armiyaga ketish oldidan qishloqdosh bolalarga qarib qolgan iti bilan dakang xo'rozini parvarish qilishni tayinlaydi. «Farzand» hikoyasi qahramoni Mengboy Surxon daryosini yaxshi ko'radi. Hanifani sevib qolishiga ham juvonning Surxonni yaxshi ko'rishi, ya'ni ikkisinin ruhiy yaqinligi, tuyg'ularining uyg'unligi sabab bo'ladi.

«Sirli militsioner» hikoyasida halollik mavzusi qalamga olinadi. Tuman IIB boshlig'ining o'rinbosari sovxoz direktori bilan bolalikdan do'st. Lekin uning faoliyatini tekshirishga kelgani uchun xolis bo'lish maqsadida o'zini oshnasidan uzoqroq tutadi. Bundan do'sti ranjiydi. Taftish chog'ida uning halolligiga ishonch hosil qilgach, do'stining xafagarchiligini tarqatadi. «Qariya» hikoyasida ham halollik mavzusi davom ettiriladi. Asarda yolg'iz cholning o'limligini yeb ketib, haqiga xiyonat qilgan Qobil qassobning asl basharasi ochib tashlanadi.

SHUKUR XOLMIRZAYEV

## BIR GUZAR ODAMLARI



Dunyoda ona mehridan ham beg'arazroq, taftliroq tuyg'u bo'lmasa kerak. «Sayr» hikoyasini o'qib, bunga o'zingiz ham amin bo'lasiz. «Odam» hikoyasi esa kishini umr mazmuni haqida falsafiy fikr yuritishga undaydi. «Qaytish» hikoyasini o'qib, inson



ruhi tilsimligi haqida o'yga tolasiz, uning iroda kuchiga qoyil qolasiz.

Birgina mo'jaz maqolada to'plamdagi barcha hikoyalar xususida to'xtalish imkonsiz. Qolaversa, bunday maqsadim ham yo'q. Hassos shoirimiz Shavkat Rahmonning bir she'rida shunday satrlar bor:

*Men sochib ketaman ko'hna bag'ringga*

*O'lmas g'oyalarning urug'larini.*

O'zbekiston xalq yozuvchisi Shukur Xolmirzayev ham ushbu kitobdan joy olgan asarlarga yaxshilik urug'larini sochib ketgan. To'plamdagi hikoyalarni o'qir ekansiz, bu urug'lar sizning ham qalbingizga ko'chishi, so'ng unib o'sib meva berishi shubhasiz.

**Bobomurod TOSHEV.**

## МУНАЖЖИМЛАР БАШОРАТИ

(23 февраль – 1 март)

**Қўй (21.03 – 20.04).** Савдо-сотиқ ишларига жиддий эътибор беришингизга тўғри келади. Қайсидир ишни амалга оширишда иккиланаётган бўлсангиз, яхшиси унга қўл урмаганингиз маъқул.



Қийинчиликлар тез орада бар-тараф бўлади.

**Бузоқ (21.04 – 20.05).** Сешанба куни узоқ кутилган пул тушуми эҳтимоли юқори. Режадаги ишларнинг кўп қисmini бажаришга улгуриб, бироз енгил тортасиз. Меҳнатсеварлик ва ҳалолликни намоён этганингиз учун атрофдагилар сизга алоҳида ишонч билдириб, келгусида ҳамкорликни давом эттириш истагида бўлади.



**Эгизаклар (21.05 – 21.06).** Саъй-ҳаракатлар зое кетмаслигини истасангиз, барча вазифаларни ҳамкасблар билан биргаликда амалга оширинг. Маблағ сарфлашда эҳтиёткор бўлинг, уларнинг баъзилари омадсиз бўлиши мумкин.



**Қисқичбақа (22.06 – 22.07).** Қобилятларни намоён этиш, ностандарт ечимларни топиш, иш жойида юқори поғоналарни эгаллаш қўлингиздан келади. Мақсадга эришиш йўлида ҳалақит қилаётган барча нарсалардан қутулинг. Баъзи режалардан воз кечишга тўғри келади, уларни янада қулай вақт келгунча ортга суриб турганингиз маъқул.



**Арслон (23.07 – 23.08).** Бу даврда сизга нимадир етишмаётгандек бўлади ва бу ҳақдаги ўйлар хаёлингизни банд қилиб қўяди. Аммо унинг айнан нима эканини тушуна олмайсиз. Бу ҳолат чоршанбадан сўнг ўтиб кетади. Дам олиш кунлари фойдали харидларни амалга оширишингиз мумкин.



**Паризод (24.08 – 23.09).** Кўнгилсизликларни четлаб ўтиш ниятида бўлсангиз, йўл-йўлакай учрайдиган майда-чуйда ноқулайликларга ҳам эътибор беринг. Ишхонадаги юмушларни бажариб, юқори натижага эга бўлишни хоҳласангиз, астойдил, тер тўкиб ишлашингизга тўғри келади.



**Тарози (24.09 – 23.10).** Ҳафта боши фаол ва қатъий ҳаракатларни талаб этади. Баъзи ишлар кўнгилдагидек кетмаётган бўлса, тушкунлик ва умидсизликка тушманг. Иш жойингизда ўта мураккаб топшириқ юкланиши, ҳафта сўнгида эса режада бўлмаган харажатлар кузатилиши мумкин.



**Чаён (24.10 – 22.11).** Бирон иш сиз кутгандек кетмаётган бўлса, умидсизликка тушманг. Тез орада ҳаммаси яхшиликка бўлганини тушуниб етасиз. Оила аъзоларингизга кўпроқ меҳр беринг. Уларнинг кўнглини оғритмаслик учун ҳар бир сўз ва амалингизга эътиборли бўлинг.



**Ўқотар (23.11 – 21.12).** Ҳафтанинг илк кунлари деярли ҳар жабҳада сизга омад кулиб боқади. Бу вақт ичида яхшигина даромадга эга бўлишингиз, яқин дўстингиз кутилмаган амали билан сизни қувонтириши мумкин. Ҳафтанинг иккинчи ярмида ёқимли ва кутилмаган янгилик оласиз.



**Тоғ эчкиси (22.12 – 20.01).** Бу даврда саломатлигингиз ёмонлашиши ёки кераксиз можаролар юзага келиши мумкин. Ҳатто зерикарли кундалик вазифалар ва маиший юмушлардан ҳам ёқимли жиҳат топишга ҳаракат қилинг. Одамлар билан муносабатда сабрли бўлинг.



**Қовға (21.01 – 19.02).** Ёдингиздан чиққан танишлар яна ҳаётингизга кириб келади. Бу ҳафта ўз гоёларингизни раҳбарият билан ўртоқлашиш учун омадли палла бўлиб, уларнинг маъқулланиши эҳтимоли юқори. Барча ишларни режадагидан кўра кўпроқ ва яхшироқ амалга ошириш имкониятингиз бор.



**Балиқ (20.02 – 20.03).** Бу ҳафта иш жойингизда зиммангизга янги мажбуриятлар юкланиши мумкин. Уларнинг муваффақиятли бажарилиши эса келажакда сизга юқори лавозимлардан бирини ваъда қилади. Демак, молиявий аҳволингиз ҳам ўсиб боришига умид боғласангиз бўлади.





# БЎЙИН ОСТЕОХОНДРОЗИ —

## офис ходимларига хавф соладиган касаллик

**С**татистик маълумотларга кўра, ҳар йили Ер юзидан 5 миллиондан ортиқ одам кам-ҳаракатлик сабабли ҳаётдан кўз юмади. Кун давомида узоқ вақт офисда ўтириб ишлаш ва жисмоний машқлар билан шуғулланмаслик организмда турли касалликларнинг ривожланишига олиб келади. Улардан энг кенг тарқалганларидан бири — бўйин остеохондрози.



Бўйин остеохондрозида асаб илдизчаларида оғриқлар, нервнинг яллиғланиши, елка ва бўйин радикулити кузатилади. Беморларда елка ва бўйин атрофида оғриқ сезилади, ҳаракатланганда бу оғриқ кучаяди, қўлларда эса «чумоли ўрмалагандай» ҳис пайдо бўлиши мумкин. Бўйинни у ёқ ва бу ёққа буришда қисирлаш овози эшитилиши мумкин, қўл панжаларида совуқлик ва увушиш пайдо бўлади, баъзан кўкрак ва юракда оғриқ ҳам сезилади.

Умurtқадаги нерв толаларининг қисилиши туфайли оғриқ бўйин, елка ва қўлга тарқалади. Йўталганда, қўлни қимирлатганда ёки бошни бурганда оғриқ кучаяди.

Шу ўринда ҳақли савол туғилади: бўйин остеохондрозини даволаш учун нима қилиш керак? Замонавий тиббиёт турли фармацевтик воситалар ва муолажалар орқали остеохондрознинг барча турларини даволаш имконини беради. Уқалаш ва махсус машқлар

бўйин ҳамда елкада қон айланишини яхшилайдиган, мушаклар тонусини нормал ҳолатга келтиради. Физиотерапия усуллари ҳам жуда фойдали бўлиб, поликлиникада, ҳамширалар назоратида амалга оширилади. Агар бош мияда қон айланиши бузилса ёки қўл-оёқларда фалаж рўй берса, жаррохлик амалиёти зарур бўлади.

**Бўйин остеохондрози туфайли вужудга келадиган оғриқларни камайтириш учун уй шароитида қуйидаги машқларни бажариш мумкин:**

★ Оддий қалам ёрдамида бўйиннинг икки томонини юмшоқ уқаланг. Бу машқ қон оқимини яхшилайдиган.

★ Елкада бадантарбия машқлари қилинг: қўлларни айланма ҳаракатлар билан олдинга ва орқага силжитинг, 10–20 сония ушлаб туринг.

★ Қўлларни пешонага қўйиб, бошни қўлларга қарата

юмшоқ босинг. Шу ҳаракатни бошнинг орқа томони билан ҳам такрорланг.

★ Ўнг қўлни чап елкадан ўтказиб, бошни чапга тортиб туринг, кафтлар билан бошни ушлаб туринг. Худди шуни ўнг томонга ҳам қилинг.

Унутманг, бундай машқлар остеохондрозни тўлиқ даволамайди. Касаллик албатта шифокор назорати ва тавсиялари асосида даволаниши керак.

**Шу ўринда офис ходимлари учун бўйин остеохондрозидан сақланишнинг муҳим қоидаларини санаб ўтаемиз:**

★ Компьютер олдида узоқ вақт бир ҳолатда ўтириб қолманг, ҳар 40–60 дақиқада қисқа танаффус қилинг.

★ Монитор кўз сатҳида жойлашган бўлиши, бош эгилиб қолмаслиги керак.

★ Стул суянчиғи бел ва бўйинни тўғри ушлаб туришига эътибор беринг.

★ Телефондан фойдаланганда бошни пастга узоқ вақт эгиб туришдан сақланинг.

★ Кун давомида бўйин ва елка учун энгил гимнастика машқларини бажариб туринг.

★ Ортопедик ёстиқда ухлашга одатланинг, бўйинни ноқулай ҳолатда қолдирманг.

★ Ортиқча вазн тўпланишига йўл қўйманг, чунки у умуртқага босимни оширади.

★ Тўғри овқатланинг: кальций, магний ва витаминларга бой маҳсулотларни истеъмол қилинг.

★ Оғриқ, увушиш ёки бош айланиши пайдо бўлса, ўзбошимчалик билан даволанманг, мутахассисга мурожаат қилинг.

**Дилноза МЎМИНОВА,**  
**ИИБ Марказий поликлиникаси**  
**олий тоифали неврологи.**  
**Адолат ФАЙЗИЕВА,**  
**ўз мухбиримиз.**

## Почему нельзя резко худеть

**Р**езкое похудение – это стресс для организма.

При быстром снижении веса замедляется обмен веществ, нарушается гормональный баланс, появляются слабость и повышенная утомляемость. Часто после такого вес возвращается обратно.

Чтобы худеть безопасно, важно не голодать, а питаться регулярно и сбалансированно.


**Что должно быть в рационе при снижении веса:**

**белок:** курица, рыба, яйца, творог, бобовые;

**овощи:** свежие, тушеные, запеченные;

**полезные жиры:** оливковое масло, орехи, авокадо;

**сложные углеводы:** гречка, овсянка, бурый рис – в умеренном количестве.



**Простые салаты для постепенного похудения**

**Овощной салат с оливковым маслом:** огурцы, помидоры, зелень, 1 ч. л. оливкового масла, немного соли.

Легкий, насыщает и помогает контролировать аппетит.

**Салат с курицей и овощами:** отварная куриная грудка, огурец, лист салата, йогуртовая заправка без сахара. Хороший источник белка.

**Салат с яйцом и зеленью:** вареное яйцо, зеленый лук, укроп, огурец, ложка йогурта. Подходит для завтрака или ужина.

**Салат из капусты:** белокачанная или пекинская капуста, морковь, немного лимонного сока и масла. Помогает пищеварению и дает чувство сытости.

## Питание для быстрого срастания костей

**П**ри переломах важно не только надежно зафиксировать поврежденную кость, но и правильно питаться. Чем меньше двигаются кости, тем быстрее происходит срастание, а рацион играет ключевую роль в том, насколько качественно проходит восстановление.

**Витамин D** – помогает организму усваивать кальций.



Основной источник – солнечный свет. Также витамин D может поступать с пищей или в виде добавок по назначению врача.

**Белок** – строительный материал для костей и мышц. При переломах его потребность возрастает. Рекомендуется



включать в рацион мясо, рыбу, яйца, творог и другие молочные продукты.

**Коллаген** – ускоряет восстановление костей и хрящей. Его источники – костный бульон, холодец, желе, рыба.

**Вода и сбалансированное питание** – достаточное количество жидкости и разнообразный рацион поддерживают обмен веществ и помогают организму восстанавливаться.





## Ташаккурнома

# СИНОВЛАР ОРТИДАГИ УМИД УЧҚУНИ



Хар бир миннатдорлик сатри ортида дунёси бир лаҳзада зулматдан ёруғликка юз тутган инсон тақдири ётади. Хар бир «рахмат» замирида эса мушкул дамда кўмак қўлини чўзган мурувватли қалб эгаси туради. Айнан шундай воқеани – ҳаётга қайтиш ва инсонларга бўлган ишончининг қайта тикланиши ҳақидаги ҳикояни таҳририятимизга кириб келган Мирзо Улуғбек туманидаги, «Шаҳриобод» маҳалласида истиқомат қилувчи фуқаро Баҳринисо Тўлаганова айтиб берди.

Баҳринисо опанинг ҳаёти «кеча» ва «бугун»га бўлинади: у беш йил озодликдан маҳрум қилиш жойларида бўлди. Озодликка чиқиш кўпинча мавҳумлик ва ижтимоий бўшлиқ билан юракка ваҳм солади. Аммо у айнан шу ерда, ўз туманида ўтмиши билан ёлғиз қолиб кетмаганини англади. Совуқ ҳукм ва таъна тошлари ўрнига, ички ишлар органлари ходимлари томонидан ҳақиқий қўллаб-қувватлашни ҳис қилди.

Улар ўз амаллари билан тизимнинг вазифаси нафақат назорат қилиш, балки инсонни жамиятга қайтариш ва унга чин дилдан ёрдам бериш эканини исботлашди.

Баҳринисо Тўлаганова ўз миннатдорлигини, аввало, Мирзо Улуғбек тумани ИИОФМБ бошлиғи, подполковник Искандар Рашидовга йўллайди. Чунки у мазкур масъулиятли лавозимга яқинда тайинланганига ва ёш бўлишига қарамай, халқимизга хос донишмандлик ва инсонийлик фазилатларини намоён этди. Баҳринисо опанинг таъкидлашича, ёш офицер улкан вазифалар кўлами қанча кенг бўлмасин мушфиқ бир аёлнинг муаммоларига бефарқ бўлмаган. Унинг қатъияти ва масъулиятимиз келажаги айнан шундай — қонун устуворлигини қалб меҳри билан бирлаштира оладиган ёш кадрлар қўлида эканининг далолатига айланди.

Аёлнинг ижтимоий реабилитациясига туман ИИОФМБ Жамоат

тартибини сақлаш бўлими маъмурий амалиёт гуруҳи катта инспектори, майор Ақром Толипов ҳам бекиёс ҳисса қўшди. Унинг амалий кўмаги туфайли Баҳринисо опа тиббиёт муассасасида даволаниш имконига эга бўлди ва йўқотилган саломатлигини тиклади. Бу унинг янги ҳаёт сари ташлаган илк ва муҳим қадами эди.

Шунингдек, туман ИИОФМБ 4-сонли ИИБ профилактика катта инспекторлари — майор Ровшан Қурбоналиев ва капитан Абдулла Маматов аёлнинг ижтимоий мослашуви учун барча чора-тадбирларни кўришди. Уларнинг расмий таъкидидан йироқ бўлган самимий муносабати Баҳринисо опага ҳаётда ўз ўрнини топишига ёрдам берди.

Бу воқеа ички ишлар органлари тизимида «ор-номус» ва «шафқат» тушунчаларини асосий мезон деб билувчи фидойи инсонлар ишлаётганининг ёрқин исботидир. Зеро, бу

каби хайрли ишлар Президентимиз томонидан илгари сурилган «Инсонларнинг дарду ташвишларини ўйлаб яшаш – одабийликнинг энг олий мезонидир», «Халқ давлат идораларига эмас, давлат идоралари халқимизга хизмат қилиши керак», «Халқимиз ўз ҳаётида ижобий ўзгаришларни эртага эмас, узоқ келажақда эмас, айнан бугун кўриши керак» деган олижаноб тамойилларнинг ҳаётдаги амалий ифодасидир.

Давлатимиз раҳбари ҳар бир нутқида таъкидлаганидек, соҳа ходимларининг фаолиятига берилган энг олий баҳо – фуқароларнинг розилиги ва уларнинг қалбидаги хотиржамликдир. Таҳририятимизга келган ушбу мурожаат ҳам юртимизда қонун устуворлиги ва инсон қадрини нақадар баланд эканини, ходимларимиз эса Президент фармонлари ижросини жойларда намунали таъминлаётганини яққол кўрсатиб турибди.

## Mini futbol

# KUCHLILAR MAYDONDA SINALDI

**IIV Jazoni ijro etish departamentining Ikkinchi mintaqaviy muvofiqlashtirish markazi tasarrufidagi muassasalarda xizmat qilayotgan xodimlar o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish hamda ommaviy sport tadbirlarini tashkil etishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.**

Jumladan, Farg'ona shahridagi «Atletik» sport majmuasida o'tkazilgan mini futbol bo'yicha musobaqa ham ana shu ezgu maqsadga xizmat qildi. Unda 6-sonli jazoni ijro etish koloniyasi, 3, 6 va 10-sonli tergov hibsonalarida xizmat olib borayotgan xodimlardan iborat terma jamoalar ishtirok etishdi. Bahslarni Farg'ona viloyati Futbol assotsiatsiyasining malakali hakamlari adolatli va shaffof tarzda boshqarib borishdi. Qizg'in va murosasiz bahslarga boy o'tgan musobaqa yakunida 10-sonli tergov hibsonasi xodimlaridan iborat jamoa

barcha raqiblarini mag'lubiyatga uchratib, faxrli 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

2-o'rin 6-sonli tergov hibsonasi, 3-o'rin esa 3-sonli tergov hibsonasi jamoalariga nasib etdi. Musobaqa g'oliblari mintaqaviy markaz boshlig'i tomonidan qimmatbaho sovg'alar, medallar hamda faxriy yorliqlar bilan taqdirlandi.

Endi 10-sonli tergov hibsonasi jamoasi mazkur musobaqaning respublika bosqichida ishtirok etadi.

**Abduvosit SIDIQOV,**  
**o'z muxbirimiz.**

*Farg'ona viloyati.*



## Ko'rik-tanlov

# YO'LLANMA NODIRAGA NASIB ETDI

**Ichki ishlar organlarida fidoyilik, matonat va yuksak mas'uliyat bilan xizmat qilayotgan xotin-qizlarni rag'batlantirish, ularning kasbiy salohiyatini namoyon etish maqsadida Navoiy viloyatida «Fidoyi ayol xodima» ko'rik-tanlovining hududiy bosqichi o'tkazildi.**



Tanlovning birinchi shartiga ko'ra ishtirokchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasi, chidamliligi, chaqqonligi baholandi. Ikkinchi shartda ularning jangovar tayyorgarligi, xizmat faoliyatida zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalari va kasbiy mahorati sinovdan o'tdi. Uchinchi shartda esa ishtirokchilar elektron test savollariga javob berib, o'z bilimlarini namoyon etishdi.

Qizg'in va murosasiz bahslarga boy tarzda kechgan tanlov jarayonlari hakamlar hay'ati uchun ham oson kechmadi. Umumiy natijalarga ko'ra, 3-o'rinni viloyat IIB

huzuridagi Tergov boshqarmasi xodimi, podpolkovnik Mahzuna Rahmonova egalladi. Ikkinchi o'rin Jamoat xavfsizligi xizmati katta inspektori, katta leytenant Dilrabo Ikromovaga nasib etdi. Eng yuqori natijani qayd etgan Tezkor-qidiruv xizmati tezkor vakili, podpolkovnik Nodira Yesamuratova 1-o'ringa munosib opilib, xotin-qizlarining V Respublika forumi doirasida o'tkaziladigan «Fidoyi ayol xodima» ko'rik-tanlovining yakuniy bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi.

**Mahliyo XOLOVA,**  
**o'z muxbirimiz.**

*Navoiy viloyati.*



## Bir qo'shiq tarixi

# MEHR-OQIBAT NIDOSI

**Jigarchilik — taqdir bilan tutashgan muqaddas rishta. Jigarning sen aytmasang ham dardingni his etadigan, quvonchingni o'zinikiday qabul qiladigan, og'rig'ingni yuragida ko'tarib yuradigan insondir. Mehr-oqibat esa oilaning nafasi, hayotbaxsh quvvatidir. Mehr-oqibat bor oiladan fayz va baraka arimaydi.**



Bu mavzu san'atkorlar ijodida ham o'z aksini topgan. Xususan, O'zbekiston xalq artisti Yulduz Usmonova ijrosidagi «Devonalar-miz» qo'shig'i va unga ishlangan klip ana shu qalblarni o'rtayotgan dardlarni ta'sirchan tarzda ifoda etgan. Mazkur qo'shiqning yaralish tarixi bilan qiziqib, she'r mualli-

fi, shoir Amir Xudoyberdi bilan bog'landik.

— «Devonalarmiz» she'ri  
1990-yili yozganman. 2008-yili uni  
«Oydin lahzalar» nomli kitobim-  
ga kiritganman va kitobga dastxat  
qo'yib, Yulduz Usmonovaga sovg'a  
qilganman, – deydi Amir Xudoyberdi.  
2013-yili san'atkor ushbu she'rimni  
kuyga solib, qo'shiq qildi. Qo'shiq  
qisqa vaqt ichida xit darajasiga chiqdi.

Avvaliga «she'rni kitobimdan olib  
kuylagan ekan», deb o'ylab yurdim.  
Bir kuni ixchamgina konsert das-  
turi davomida Yulduz Usmonova  
anchadan beri she'r muallifini izlab  
yurgani va nihoyat uni topganini  
e'lon qilib, sahnaga bir yosh yigitni  
taklif qilgani aks etgan videoyozuv-  
ni ko'rdim. Shoirning ko'ngli nozik  
bo'ladi, ranjidim, ammo indama-  
dim. Qizlarimdan biri san'atkor-  
ning administratori bilan bog'lanib,  
masalaga oydinlik kiritdi. Xullas,  
«havaskor shoir»ning yolg'oni ko'p  
o'tmay fosh bo'ldi.

Yulduz Usmonova bilan bugungi  
kunga qadar ijodiy hamkorligimiz

davom etmoqda. Birgalikda turli yoʻnalishlarda oʻttizdan ortiq ijod namunalarini yaratganmiz.

Shoir Amir Xudoyberdi ta'kidlashicha, «Devonalarmiz» she'ri-ning g'oyasi aslida nihoyatda keng va teran mazmunga ega. Asar irqiy, diniy va milliy ayirmachilikka qarshi qaratilgan bo'lib, unda insonlararo tenglik, qardoshlik, do'stlik, birodarlik va ahillik tuyg'ulari tarannum etiladi. Shu bilan birga, she'rda jigarlar o'rtasidagi muhabbat, o'zaro munosabatlar va insonning ichki kechinmalari ham chuqur ifoda etilgan.

Darhaqiqat, Yulduz Usmonovning ovozi va musiqiy sayqal qo'shiqni yanada ta'sirli qiladi. Uning hissiyotli ijrosi va kuy ohanglari satrlarga qo'shib, tinglovchi qalbidagi mehr-oqibat tuyg'usi va orzu-umidlar bilan mukammal hamohanglik yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, «Devonalarimiz» qoʻshigʻi inson qalbiga chuqur taʼsir koʻrsatadi va nafaqat hissiyotlarni uygʻotadigan, yuksak maʼnaviy ahamiyatga ega qoʻshiq sifatida ham alohida eʼtirofga loyiq.

**Adolat FAYZIYEVA,**  
**o'z muxbirimiz.**



## DEVONALARMIZ

Bir to'shakda, bir ko'rpada yotib yonma-yon  
Uxlayapmiz, axir dema begonalarmiz.  
To'shagimiz zamin bo'lsa, ko'rpamiz osmon,  
Yondoshlikni anglolmagan devonalarmiz.

*Nagorat:*

Devonalarmiz, devonalarmiz,  
Qondoshlikni anglolmagan devonalarmiz.  
Sarsonalarmiz, begonalarmiz,  
Bir qorindan tug'ilsak-da, begonadaymiz.

Bir ildizdan ko'karganmiz, muazzam olam,  
Beshigimiz, dema siyqa, afsonalarmiz.  
Momo Havo onamizdir, otamiz Odam,  
Qondoshlikni anglolmagan devonalarmiz.

Bani bashar oshyoni shu mitti sayyora,  
Qo'lni qo'lga bersak go'yo marjonalarmiz.  
Tinch va totuv yashasak, baxt topgaymiz zora,  
Jondoshlikni anglolmagan devonalarmiz.

|                    |                        |       |             |                |                     |             |                   |                  |                    |          |                  |                        |
|--------------------|------------------------|-------|-------------|----------------|---------------------|-------------|-------------------|------------------|--------------------|----------|------------------|------------------------|
| Кишки «транс-порт» |                        |       |             |                |                     |             |                   | Пингвин юрти     |                    |          |                  |                        |
|                    | Дарё номи              |       | Яшил дарахт |                | Санъат тури         | Совун хили  | Хижрий ой         | Кўр              | Давлат (Африка)    |          | Муштоқ           |                        |
|                    | ... урар ҳар боб билан |       | Ашё         |                |                     |             |                   |                  | Гул нави           |          | Ражаб ... (акт.) |                        |
|                    |                        |       |             |                | ... Пўлатова (акт.) |             | Шаҳар (Франц.)    |                  | Диний мактаб Замин |          |                  | Шаҳар (Куба)           |
|                    |                        |       |             | Ариқ (шевада)  |                     | Ҳўл мева    |                   | Билли-ард        |                    |          |                  |                        |
| Киймат             |                        | Ришта |             | 2002 йил буржи |                     |             | Таг               |                  |                    |          |                  | ... Зун-нунова (шоира) |
|                    |                        | Тоқат |             |                |                     |             |                   |                  |                    |          |                  |                        |
|                    |                        |       |             |                |                     | Санта Клаус | Маугли-нинг дўсти | Россия ўрмони    |                    | Сол      |                  | Жусса                  |
|                    |                        |       |             |                | Уйку (эск.)         |             |                   | Геомет-рик атама |                    |          |                  |                        |
|                    |                        |       |             |                |                     |             |                   |                  |                    |          |                  |                        |
|                    | ... Фариа (асар)       |       | Етар        | Озуқа          |                     | Қирғиз пули | Ҳийла             | Ўлчов            |                    | Боғловчи |                  |                        |
|                    |                        |       |             |                |                     |             |                   | Дарё             |                    | Касаллик |                  |                        |
|                    |                        |       |             |                |                     | Мусав-вир   |                   |                  |                    |          | Газлама тури     |                        |

**MUASSIS:**  
**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI**

**Bosh muharrir**  
**polkovnik**  
**Bernora SADIKOVA**

**Bosh muharrir**  
**o‘rinbosarlari**  
**podpolkovnik**  
**Azizjon FAYZIYEV**  
**mayor**  
**ziza BOHODIROVA**

**Mas'ul muharrir**  
**Erkin SATTOROV**

**Veb-dizaynerlar**  
Zokir BOLTAYEV  
Ilhom JUMANOV  
Akbar BOLTAYEV

**Navbatchilar**  
**Abror POYONOV**  
**Radik TUMPAROV**

**TELEFONLAR:**  
71-231-33-88:

**Web-site:** [www.postda.uz](http://www.postda.uz)  
**E-mail:** [info@postda.uz](mailto:info@postda.uz)



Tahririyat hisob raqami h/r  
23402000300100001010.  
Bank kodi 00014.  
O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va  
moliya vazirligi g'aznachiligi.  
Shaxsiy h/v  
460010860262877031101179003  
STIR 200637499.

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Manzilimiz: 100070, Toshkent shahri,  
Shota Rustaveli 1-berk ko'chasi 9-uy.

Buyurtma № 409.  
Bosilish – ofset usulida.  
Bichimi – A3.  
Hajmi – 6 bosma taboq.  
49725 nusxada chop etildi.

**Obuna raqamlari:**  
Yakka tartibda – 180.  
Tashkilotlar uchun – 366.  
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.  
Bosishga topshirildi – 21.00.  
Sotuvda kelishilgan narxda.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Korxona manzili: 100206  
Yunusobod tumani,  
Yangishahar ko'chasi 1<sup>A</sup>-uy.